

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 18-mart chorshanba №11(9596)

“Kelajak o'qituvchisi” QANDAY BO'lishi KERAK?

2-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



 Avvallari 4-, 9-, 11-sinfda jismoniy tarbiya fanidan imtihon bo'lardi. 4-sinfda 2000 metrga yuguranimiz esimda. Hammamiz imtihonga tayyorlanardik. Hozir jismoniy tarbiya fani 10-11- sinflarda bir soat qilib qo'yildi, o'quvchilar doim “hech bo'lmasa 2 soat qilinglar” deb so'rashadi. Bolalar orasida skolioz, osteoporoz rivojlanyapti. Endi esa yana 6-sinflarda ham variativ sinflar ochilishi rejalashtirilmoqda. Bu, tabiiyki, jismoniy tarbiyaning qisqarishiga olib keladi. O'quvchilarning ayni o'sadigan, rivojlanadigan yoshida shu fanni qisqartirish oqibatini kimdir o'ylayaptimi?

Dildora ABZALXONOVA

 O'zini hurmat qilgan har bir inson tibbiy ko'rikdan albatta o'tishi kerak. Ayniqsa, o'qituvchilar yiliga bir emas, 2 yoki 3 marotaba mukammal darajada ko'rikdan o'tkazilishi zarur.

Bilamizki, eng xavfli kasalliklar asabdan kelib chiqadi. Uning oldini olish yoki o'qituvchi darsini boshlashga yurib emas, yugurib kelishi uchun imtiyozlar yaratilsa yaxshi bo'lardi. Axir oddiy kasalxona yotog'i 200–300 ming so'm bo'lgani-dan keyin o'qituvchi kasalxona tugul kasallik chiqsa nima qilaman degan fikr bilan o'sha tekshiruvga ham bormaydi.

Nargiza BEKNAZAROVA



Jarayon



Bugun jamiyat zamonaviy talablarga javob beradigan mukammal tayyorgarlikka ega o'qituvchilarni tayyorlashni kun tartibiga qo'yimoqda. Biroq umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan ayrim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi davr talabidan ortda qolayotgani tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Bu vazifa pedagog-o'qituvchilarni tayyorlaydigan pedagogika oliy ta'lim muassasalariga katta mas'uliyat yuklaydi.

“Kelajak o'qituvchisi” qanday bo'lishi kerak?

Jumladan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti professor-o'qituvchilari bu borada ibratli ishlarni amalga oshirishga kirishgani e'tiborga loyiq. Xususan, keng qamrovli ilmiy tadqiqot loyihasi sifatida “Pedagogik mahorat” laboratoriyasi tashkil etildi va mazkur laboratoriya ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlovchi zamonaviy pedagogik muhitni yaratadi. Interaktiv texnologiyalar, trening zonalari hamda art-pedagogika elementlari yordamida ta'lim faol, refleksiv va talaba markazli asosda tashkil etiladi.

Laboratoriyada:

- bo'lajak pedagoqlarda kasbiy kompetensiyalar (pedagogik, metodik, kommunikativ, raqamli va kreativ)ni shakllantiradi;
- kompetensiyaviy yondashuv asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish imkonini beradi;
- pedagogik diagnostika vositalari orqali talabalar bilimini shaffof baholash va individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlashga xizmat qiladi;
- art-pedagogika orqali ijodiy tafakkur, emotsional intellekt va estetik madaniyatni rivojlantiradi. Natijada ta'lim sifati oshadi, bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvchanligi kuchayadi.

Laboratoriya integrativ yondashuv asosida tashkil etilib, nazariya va amaliyotning uzviyligini ta'minlaydi, shu bilan birga, ta'limda yangi standartlarni belgilaydi.

Pedagogik diagnostika zonasi ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash, o'quv jarayonini monitoring qilish hamda natijalarni tahlil etishga xizmat qiladi. Bunda:

- samarali muloqot va o'zaro ta'sir qobiliyatini rivojlantirish;
- o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va xulosalar chiqarish;
- innovatsion o'qitish metodlarini o'zlashtirish va tatbiq etish;
- faol va interaktiv o'qitish usullarini o'zlashtirish;
- onlayn platformalar va elektron kutubxonalardan samarali foydalanish;
- multimedia va dinamik o'quv kontentini yaratish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Art-pedagogika esa talabalarning ijodiy salohiyatini ochish, emotsional-psixologik holatini rivojlantirish hamda estetik didini shakllantirishga qaratilgan. San'at orqali ta'lim berish shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlab, ta'limning gumanistik mohiyatini kuchaytiradi.

“Kelajak o'qituvchisi” konsepsiyasi loyihasi doirasida “Neyropedagogika” yo'nalishi dasturi ishlab chiqilgan. Neyropedagogika – miya faoliyati, kognitiv jarayonlar, his-tuyg'ular va bilim o'zlashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi pedagogik yo'nalish bo'lib, ta'limni individual va samarali tashkil etishni maqsad qiladi.

Kelajak o'qituvchisi nafaqat fanni biladigan, balki har bir o'quvchining individual imkoniyatlari, va hissiy holatini hisobga olish orqali ta'limni individuallashtirishga qodir pedagogdir. Bu vazifani amalga oshirishda neyropedagogika markaziy o'rin tutadi. U bilimni miyaga qanday samarali yetkazish, xotira, diqqat, tafakkur va his-tuyg'ularni

qanday faollashtirish mumkinligini ilmiy asoslangan tarzda tushuntiradi. Shu bois, “Kelajak o'qituvchisi” konsepsiyasida neyropedagogik bilim va kompetensiyalar alohida strategik yo'nalish sifatida qaraladi. Mazkur dastur shu maqsadda ishlab chiqilmoqda.

Dasturning asosiy maqsadi kelajak o'qituvchisida neyropedagogik bilim va kompetensiyalarni shakllantirish orqali ta'lim jarayonini shaxsga mos, ilmiy asoslangan va samarali tashkil etishni ta'minlashdan iborat. Bu orqali talabalarda bilish, hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarni uyg'un ravishda rivojlantirishga erishiladi.

Vazifalari:

- neyropedagogika fani va uning ta'lim amaliyotidagi ahamiyatini o'rgatish;
- bilish jarayonlari (xotira, diqqat, tafakkur, his-tuyg'u)ni faollashtiruvchi usullarni amaliyotga joriy etish;
- individuallashtirilgan va miyaga moslashgan ta'lim

muhitini yaratish ko'nikmasini shakllantirish;

- talabalarda neyropsixologik rivojlanishni baholash va kuzatish instrumentlaridan foydalanishni o'rgatish;
- vizual, verbal va kinestetik faollashtirish usullarini to'g'ri tanlash va qo'llash qobiliyatini shakllantirish;
- neyroassotsiatsiyalar, refleksiya, empatiya va motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan mashg'ulotlar ustida ishlash;
- neyropedagogikaga asoslangan dars senariylari, mashg'ulotlar va faoliyat turlarini loyihalash va baholashni o'rgatishdan iborat.

Neyropedagogik dastur ta'lim jarayonida inson miyasi va ruhiy-emotsional holatini hisobga olgan holda shaxsga moslashuvchan, samarali o'qitishni ta'minlaydigan quyidagi asosiy yo'nalishlar va komponentlar asosida quriladi:

a) Vizual-verbal faollashtirish. O'quv materialini yodda saqlash va tushunish jarayonini yengillashtiruvchi vizual (rasm, sxema, grafik) va verbal (so'z, ifoda, til) stimullar orqali miyani faollashtirish. Bu usul neyron aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi;

b) Xotirani faollashtirish. Qisqa va uzoq muddatli xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar, mental xaritalar, assotsiatsiyali yodlash texnikalari. Bu bilimning mustahkam o'zlashtirilishiga zamin yaratadi;

d) Diqqatni markazlashtirish. O'quvchilarda diqqatni jamlash va uzoq vaqt saqlash ko'nikmasini shakllantirish uchun miyaga mos interaktiv mashqlar va tayyorgarlik jarayonlarini yo'lga qo'yish;

e) Hissiy intellekt. Emotsional sezuvchanlik, o'z his-tuyg'ularini idora qilish, boshqalar hissiyotini anglash va muloqotda empatiya namoyon etish qobiliyatini rivojlantirish;

f) Neyroassotsiatsiyalar. Yangi ma'lumotni oldingi bilimlar bilan uyg'unlashtirish orqali chuqur va uzoq muddatli bilimni shakllantirish. Bunda ramzlar, mazmunli ifoda va metaforalardan keng foydalaniladi;

g) Refleksiya va metakognitiv qobiliyatlar. O'quvchi o'zi qanday o'rganayotganini anglaydigan, bilish jarayonini nazorat qiluvchi ko'nikmalarni shakllantirish. Bu mustaqil o'rganish va shaxsiy samaradorlik poydevoridir;

h) Kognitiv va affektiv moslashuv. Dars jarayonida miyaning bilish qobiliyati (kognitiv), hissiy holati (affektiv) va muhit ta'siri o'rtasidagi munosabatni inobatga olib faoliyatni moslashtirish;

i) Integrativ mashg'ulotlar. Fanlararo bog'lanish, ijodiy va intermodal o'qitish usullari orqali miyaning turli sohalarini bir vaqtda faollashtirish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, universitetda olib borilayotgan “Kelajak o'qituvchisi”ni tayyorlashda innovatsion tadqiqotlar, yangilikka intilish, ta'limni rivojlangan mamlakatlar erishgan yutuqlarga tenglashtirish, jamiyat taraqqiyoti uchun yuksak tayyorgarlik va iqtidorga ega professional pedagog kadrlar yetkazib berish professor-o'qituvchilarning kechiktirib bo'lmaydigan vazifasi hisoblanadi.

Rahmatilla MUSURMONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Umumiy pedagogika” kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

“MADE IN Qanday qilib brendiga



Bugungi kunda “Made in Germany” degan yozuvlarni o'qib qolsangiz, ko'z oldingizga yuqori sifat, ishonchlilik va aniqlik keladi. Ammo dastlab bu atama butunlay boshqacha ma'noga ega ekanini bilarmidingiz?



“Made in Germany” – “Germaniyada ishlab chiqarilgan” iborasi 1887-yili Buyuk Britaniya paydo bo'lgan. Tovar belgilari to'g'risidagi qonun Britaniya o'z iste'molchilarini Germaniyadan import qilish haqida ogohlantirishi uchun mo'ljallangan edi. O'sha payti nemis tovarlari arzon va sifatsiz deb hisoblanardi. Yorliq bu mahsulotlar Angliyadan kelmaganligini va shuning uchun kamroq qiymatga ega ekanligini ko'rsatish uchun mo'ljallangan edi.

Nemis ishlab chiqaruvchilari bu yorliqni haqorat va obro'sizlik belgisi deb qabul qilishdi va bunga biroz vaqt o'tib yuqori sifat bilan javob berishdi. Ular ta'lim, texnologiya va sanoatni rivojlantirishga katta mablag' sarfladilar. Nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan birlashtirgan ikki tomonlama kasbiy ta'lim tizimini, ya'ni “Ausbildung”ni yo'lga qo'yidilar. Bu esa yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqara oladigan kuchli mutaxassislar va muhandislar yetishib chiqishiga olib keldi.

Yana bir muhim omil: fan va sanoat o'rtasidagi yaqin hamkorlik. Tadqiqot natijalari tezda ishlab chiqarishga joriy etildi. Germaniya, ayniqsa, mashinasozlik, kimyo, elektrotexnika va keyinchalik avtomobilsozlik kabi sohalarida yuqori darajadagi texnik tajribani rivojlantirdi.

Nemis tadbirkorlari “Made in Germany” “tamg'a”sidan oqilona foydalanib, uni sifatga sodiqlikning namoyishi sifatida qabul qilishdi. Texnologiya ta'minoti hamda puxta ishlab chiqarishga sarmoya kiritishdi. Shunday qilib, kichik ustaxonalar va uy loyihalari dunyoga mashhur kompaniyalar uchun boshlang'ich nuqtalarga aylandi.

Mashhur bir misol – “Adidas”ni olaylik. 1920-yillarda poyabzal tuzatuvchi Adolf Dassler Herzogenaurachdagi kichik uy ustaxonasida futbolchilar va yengil atletikachilar uchun sport poyabzallarini ishlab chiqara boshladi. U aniqlik, yengillik va qulaylikka katta e'tibor qaratdi. 1936-yili Berlindagi Olimpiya o'yinlarida amerikalik sprinter Jessi Owens uning poyabzalini kiyib to'rtta oltin medalni qo'lga kiritdi. O'sha kichik uy ustaxonasidan “Germaniyada ishlab chiqarilgan” va sifat bilan si-



GERMANY”

Germaniya sifat aylandi?

nonim boʻlgan dunyoga mashhur Adidas brendi paydo boʻldi.

Robert Bosch ham kichik biznesni katta brendga aylantirgan tarixiy shaxs. 1886-yili u Shtutgartda elektrotexnika ustaxonasiga asos soldi. Maqsadi ishonchli va bardoshli qurilmalarni yaratish edi. U oʻz kompaniyasini avtomobillar uchun mustahkam oʻt oldirish tizimini ishlab chiqish bilan mashhur qildi. Bosch keng tarqalgan amaliyotga aylanishidan ancha oldin, qatʼiy sifat nazoratini joriy qildi va shu bilan nemis muhandisligining global obroʻsiga asos soldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Germaniya oʻz iqtisodiyotini qayta tiklashga majbur boʻldi. “Iqtisodiy moʻjiza” deb nom olgan davrda mamlakat ommaviy ishlab chiqarishga emas, balki sifatga ongli ravishda eʼtibor qaratdi. Nemis mahsulotlari raqobatbardosh, ishonchli va texnologik jihatdan rivojlangan edi. Volkswagen, Siemens va Bosch kabi kompaniyalar nemis tovarlariga boʻlgan ishonchni tiklashga hissa qoʻshdi.

Ushbu misollar “Germaniyada ishlab chiqarilgan” sifat bilan tasodifan sinonim emasligini koʻrsatadi. U innovatsiya, mehnatsevarlik, aniqlik va texnologiyaga ishonchdan kelib chiqqan. Uyda paydo boʻlgan kichik gʻoyalar natijalari ham, yangicha yondashuv, mustahkam sifat orqali global miqyosda tan olingan mahsulotlarga aylanishi mumkin.

Germaniyada 10 yildan buyon istiqomat qilayotgan inson sifatida ayta olamanki, nemislarga xos madaniy qadriyatlar ham ushbu yuksalishda muhim rol oʻynagan. Aniqlik, tartiblilik, rejalashtirish va masʼuliyat hissi olmon xalqining qon-qoniga singib ketgan oʻziga xosliklar boʻlib, ana shular koʻplab biznesmenlarning ish usullarini tavsiflaydi. Bir gal roʻzgʻor uchun doʻkondan plastik idishlar sotib oldim. Tipik nemislarga xos bir toʻplam yorliqlari, jurnaldek keladigan mahsulot haqida maʼlumotlari bor edi. 100 yillik kafolatni oʻqigach, yuqoridagi fikrlarimga yana bir bor tasdiq topdim.

Yaʼni “Tupperware” brendi koʻpincha koʻp yillar davomida oʻz maqsadiga ishonchli xizmat qiladigan raqobatbardosh plastik idishlari bilan mashhur. Uning oʻziga xosligi shundaki, koʻpgina Tupperware mahsulotlari kafolatlangan xizmat muddati bilan birga keladi, yaʼni “100 yillik kafolat” sifati bilan sotiladi. Albat, bu idish tom maʼnoda 100 yil xizmat qiladi degani emas. Aksincha, bu Tupperware material yoki ishlab chiqarishdagi nuqsonlar yuzaga kelganda, umrbod tekin almashtirilishi mumkinligini anglatadi. Agar ishlab chiqarishdagi muammo tufayli idish yoki qopqoq sinib qolsa, mijoz odatda uni bepul almashtirishi mumkin. Bu kafolat Germaniya sifat madaniyatining yana bir dalilidir. Ha, Germaniyada mahsulotlar raqobatbardosh, mustahkam va ishonchli boʻlishi uchun ishlab chiqariladi va kichik nuqsonlar yoki ishlab chiqarish muammolari tezda bartaraf etiladi. “Germaniyada ishlab chiqarilgan” deganda darhol avtomobillar, mashinalar yoki sport tovarlari xayolga keladi. Ammo Tupperware kabi kundalik mahsulotlar nemis mahsulotlarining butun dunyo boʻylab sifat bilan sinonim ekanligini ham koʻrsatadi.

Maʼrifat NUR

Hamburg, Germaniya

Siz nima deysiz?



11-sinfga darsga kirdim. Yillik rejamdagi mavzudan sal chetlab, asr muammolari – ekologiya va atrof-muhitni asrash, toza ichimlik suvi va oziq-ovqat muammosi, insoniyat yaqin kelajakda juda katta global xavf ostida ekanligi, butun Yer sayyorasi kataklizmga tushib qolishini ilmiy dalillar, kuzatgan va oʻqiganlarim orqali 45 minut davomida tushuntirib berdim. Monitor orqali lavha ham qoʻyib berdim.

Bizga baxtli insonlar kerak!

Dars soʻngida oʻquvchilardan “Nima fikrlaringiz bor, tabiat va uni asrash haqida qanday taklif, gʻoya, loyiha rejasini tugʻildi?” deb soʻradim. Hech kimdan sado chiqmadi. Nahot shuncha harakatim zoye ketdi deb afsuslanib turgandim, bir oʻquvchim qoʻl koʻtarib qoldi.

– Xayriyat-e! Qani, marhamat.

– Ustoz, boʻldimi, dars tugadimi? Javob bering, kursim bor!

Zoʻrgʻa oʻzimni bosdim...

Biz farzandlarimizni “olim” qilayotgandirmiz, ehtimol. Biroq odam qilolmayapmiz. Balki ularga ilm oʻrgatayotgandirmiz. Lekin shu ilmni qayerga, nima maqsadda ishlatishi kerakligini oʻrgatmayapmiz. Oʻquvchilarimiz yer yuzida necha xil oʻsimlik, necha xil gul, necha xil meva, bir yillik va koʻp yillik oʻsimliklar, ularning hujayrasidan tortib, tur, sinf, klassifikatsiyalarini ham bilishar, ammo oʻz hovlisi, koʻchasi, maktabiga qachon bitta nihol ekanini eslolmasa kerak.

Elektr toki, tok kuchi, kuchlanish, ketma-ket parallel ulanishlarning qonun-qoidalari, Kulon qonuni, Om qonuni, Kirxgoff qonuni, Joul-Lens qonunlari, atmosfera hodisalarini suv qilib ichvorishar, balki. Biroq elektr energiyasini tejash, havoni ifloslantirmaslikni xayollariga ham keltirishmaydi.

Dunyo okeanlari, mashhur sharsharalar, eng katta koʻllar, eng uzun va eng sersuv daryolarni bilishar. Ammo mahallasidan oqib oʻtuvchi birgina ariqni chiqindilardan tozalashmaydi.

Uyidagi suv joʻmrangi huda-behuda ochiq. “Suvni yop!” desangiz, “Pulini toʻlayapman-ku!” deydi. Aslida ayb oʻzimizda. Ekologiya va atrof-muhitni asrash, dov-daraxtlar va gullarni koʻpaytirish, ichimlik suvini isrof qilmaslik kerakligini uqtiramiz-u, biroq maktablarda bir zamonlardagi kabi shanbaliklar, oʻquvchilarning oʻz sinfxonalarini navbat bilan tozalab, gullarga suv quyish kabi vazifalarni majburiy mehnat bahonasida yoʻq qilib yubordik...

Taʼlim mazmunini oʻzgartirishimiz kerak. Afsuski, biz faqat uning sirtini yaltiroq qilish bilan ovoramiz. Taʼlim tizimida qilingan oqilona va strategik islohot kamida 25 yildan keyin natija beradi, ammo xalq va davlat kamida 250 yil baxtli yashaydi. Biz esa tizimda deyarli har yili uzoqni koʻzlamagan islohot va yangiliklar, piarlar qilish bilan ovoramiz. Vaholanki, taʼlim tizimi – har qanday davlatning ogʻir karvoni.

Maktablarda texnologiya fani oʻrgatiladi. Ammo oʻquvchilarning aksariyati arra, tessa, randani ushlashni bilmaydi. Ketmon desang belkurak keltiradigan, belkurak desang yelka qisadigan avlodni shakllantirdik. Hatto santexnikaning eng oddiy ishlariga ham uquvi yoʻq.

Fizika fani oʻtiladi, ammo oʻquvchilar uyda lampochka, chiroq yoqqichni almashtirish, elektr simlarini payvandlash, oddiy radiopriyomnikni tuzatish, dazmol spiralini almash-tirishni bilmaydi.

Geografiya oʻtiladi, ammo oʻzi turgan joyning geografik kengligi, chegaradosh respublikalar, mamlakat poytaxtlari, demografik oʻsish, urbanizatsiya nimaligi, yerlarni qachon yumshatish, qachon oʻgʻit berish, qachon sugʻorishni bilishmaydi. Nega sharq tomondagi mamlakatlar vaqt boʻyicha bizdan oldin, gʻarb tomondagi davlatlar esa orqada ekanligiga qiziqib ham koʻrishmaydi.

Albegra, geometriya oʻqitiladi, ammo taʼmirtalab uyiga qancha boʻyoq, qancha gulgogʻoz, qancha xomashyo ketishini chamalay olmaydi. Jahon tarixi u yoqda tursin, aksariya-

ti yurtimiz tarixini bilmaydi. “Sobir Rahimov kim?” degan savolga “Metro bekating nomi”, “Renessans nima?” degan savolga “Telekanal nomi” deb javob berishadi...

Yaqinda bir majlisda ishtirok etdim. Tabriklar, qarsaklar, maqtovlar. Bilsam, oʻquvchilar OTMlarga kirish uchun imtiyoz beradigan xorijiy va milliy sertifikatlarni qoʻlga kiritishibdi. Ajoyib, barakalla! “Sertifikatchi” oʻquvchilardan biriga qiziqib savol berdim.

– Navoiydan bitta gʻazal ayting.

– Yoʻnalishimda yoʻq!

– “Xamsa” dostonlarini sanab bering.

– Variantlar bormi?!

– Boburdan ruboiy ayting.

... Bosh chayqaydi.

– Qodiriy asarlarini sanab bering.



... Jim.

– Renessans nima?

... Jimjitlik.

– Eng yaxshi koʻrgan adibingiz kim? Bitta sheʼr aytib bering. Madhiyamizni ayting!

– “Serquyosh”nimi?..

Biz koʻp narsaga erishayotgandirmiz, ehtimol. Lekin undan koʻp narsani boy beryapmiz. Ota-onalar, afsuski, biz pedagoglarni ham faqat bolalarimiz oʻqishga kirishi-yu, al-lambalo(aslida hech kimga kerak emas) jadvallar qiziqitrayapti. Farzandlarimiz talaba boʻlsa boʻldi. Koʻproq bitiruvchilarimiz OTMlarga kirib, foizimiz oshsin – bizga shu kerak! Natijada oʻquvchilar oʻzlariga kerakli boʻlgan fanlarni oʻqib, qolgan fanlarga deyarli eʼtibor bermay qoʻydi. Fanlar ularning nazdida kerak-nokerakka ajratildi. Xoʻsh, endi ayting. Oʻsha OTMlarga qabul qilingan bitiruvchilarning necha foizi talabalik davrida oʻqishni yaxshi davom ettirdi-yu, necha foizi diplom ishini muvaffaqiyatli yoqladi? Ulardan qay biri hayotda oʻz yoʻlini topib ketdi-yu, qay biri adashdi? Qay biri ilm ketidan, qay biri mol-dunyo ketidan quvib, korrupsiya va boshqa yomon ishlarga oʻralashib qoldi. Qay biri xalqim, dedi. Qaysi biri halqumim, dedi... Jinoyatchilar ham, korrupsionerlar ham, tovlamachi-yu oʻgʻri-kazzoblar ham qachonlardir oʻquvchi boʻlgan. Qachonlardir ular ham maktabga borib, yozish, hisoblash, “Alifbe”ni oʻrganishgan. Har holda onasining qornidan jinoyatchi boʻlib tugʻilmagandir.

Yozmishlarimda bor edi: “Bugungi jinoyat kechagi tarbiyaning mahsulidir”. Mahalladagi bitta jinoyatchi uchun oila bilan birga maktab ham, jamiyat ham teng aybdor. Taʼlim, xususan, maktab taʼlimi bunday boʻlmaydi. Maktab taʼlimi oʻquvchini OTMga kiritish uchun emas(!), hayotga tayyorlash uchun kerak. Biz esa, afsuski, maqsadni kichik olamiz – “Oliy taʼlimga kirsin!”. Axir OTMga kirmay turib ham kishi jamiyatda oʻz oʻrnini topishi, hayotini yoʻlga qoʻyishi mumkin-ku! Bu fikrlar bilan oʻquvchilarimizning bilim olish shashtini tushirmoqchi emasman. Shunchaki, pedagoglarimizga farzandlarimizni avvalo hayotda qoqilmaslik, hayot sinovlari oldida dovdirab qolmaslik hamda har qanday muammoga yechim topa olishga oʻrgatishlari kerakligini uqtirmoqchiman, xolos.

Millat taqdiri siyosatshunoslar bilan dumaloq stol atrofida emas, sinfxonalardagi partalarda, oʻquvchi va oʻqituvchilar bilan hal boʻladi. Yana bir gap: “Kelajak yoshlar qoʻlida!”, deymiz. Yoʻq, kelajak yoshlar qoʻlida emas, kelajak shu yoshlarni tarbiyalayotgan kattalar qoʻlida! OTMga kirgan boladan ota-ona va maktab manfaatdor, hayotga tayyor boladan jamiyat va davlat manfaatdor. Endi oʻylang, bizga qay biri muhim?

Bizga OTMlarga kirgan baxtli bitiruvchilar emas, jamiyatda oʻz oʻrnini topgan baxtli insonlar kerak!

Erkinjon YARASHEV,

“Taʼlim fidokori” koʻkrak nishoni sohibi,

Xalq taʼlimi aʼlochisi

Tashabbus

ILM TASHABBUSLARI
KENGAYAVERSIN!

Resurslarning cheklanganligi, ehtiyojlarning muntazam o'sib borishi sharoitida aynan ilm-fan insoniyatga muqobil yechimlarni taklif qiladi. Bunda zamonaviy bilimlarga qiziqishni oshirish, keng doirada kitobxonlikni targ'ib qilish shubhasiz natijaga eltuvchi yo'ldir. Muqaddas Qur'oni karim nozil bo'lganida ilk so'z "Iqro" bo'lgani haqiqat. Hadis-u shariflarda esa "Ilmdan o'zga najot yo'q", "Beshikdan qabrgacha ilm izla" deya ta'kidlanishi barchamizni doimo yangi ilmlar olishga undab kelmoqda. Respublikamizda yoshlarni ilm-fanga yo'naltirish, aholi o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish borasida hukumat darajasida amaliy ishlar keng miqyosda davom ettirilmoqda.

Hududlarda ham iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash masalasi doimiy kun tartibidadir. Bunda o'zimiz voyaga yetgan maskandagi o'quvchi yoshlarni ilmga yo'naltirish, ularni rag'batlantirishga intilish tashabbuslari albatta muhim. Bu borada Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom qishlog'idagi 12 ta maktab o'quvchilari o'rtasida har yili mart oyida o'tkazilib kelinayotgan "Umidli yoshlar" tashabbusli fan olimpiadalari e'tiborga molik. Ta'lim loyihasi tashabbuskorlari 63-umumta'lim maktabi bitiruvchilari.

Qadim qishloqda bahor kirib kelishi bilan qizg'in muhokamalarga sabab bo'ladigan mazkur tashabbusli olimpiadaning 6-mavsumi 2025-yil 8-mart kuni ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Joriy mavsum ham fan olimpiadalari matematika, fizika, ingliz tili, biologiya fanlaridan 8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazildi. Olimpiada g'olib va sovrindorlari, ularning ustozlari tashkilotchilar va homiylar tomonidan bir martalik moddiy rag'batlantirilayotganligi, g'olib o'quvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga tayyorgarlik uchun o'quv kursi xarajatlari qoplab berilayotganligi nihoyatda quvonarlidir. Garchi rag'batlantirish miqdori yuqori bo'lmasa-da, o'quvchi yoshlar ko'zidagi o't, bilim olishga intilish har doim quvontiradi. Muallimlarning ham jiddiy yondashuvi mazkur tashabbusga qiziqishni yanada oshirmoqda. Qolaversa, ushbu tashabbusli fan olimpiadasining dastlabki 4 mavsumi g'olib va sovrindorlari bugungi kunda respublikamizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari talabalari, oldi g'olib va sovrindorlar esa bitiruvchi kurs talabalari ekanligi ilk natijalarni namoyon qilmoqda.

Keling, jarayon va natijalar haqida ishtirokchilar fikrlariga e'tibor qaratsak.

Azizbek Quvonov, Samarqand davlat universiteti talabasi:

– Assalomu alaykum! Men "Umidli yoshlar" olimpiadasining 1- va 2-mavsumlarida matematika fanidan, shuningdek, 5-mavsumda "Qishlog'imiz kitobxonlari" tanlovida g'olib bo'lganman. Bunday tanlovlar qishlog'imiz o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, 5-mavsumdan boshlab "Qishlog'imiz kitobxonlari" yo'nalishining qo'shilishi nafaqat o'quvchilarni, balki kattalarni ham kitobxonlikka jalb qildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki kitob o'qish fikrlash qobiliyatimizni rivojlantirib, so'z boyligimiz va dunyoqarashimizni boyitadi.

Bugungi kunda qishlog'imizda "Pirnazar Davronov izdoshlari" hamda "Umidli

yoshlar" olimpiadasi o'tkazilayotgani biz yoshlar uchun katta imkoniyat. Bunday tanlovlar yanada ko'payishini chin dildan istardim. Shu o'rinda tanlov tashkilotchilari va homiylariga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Bu tanlovlar menga katta motivatsiya berdi va ilmga bo'lgan qiziqishimni yanada oshirdi. Hozir Samarqand davlat universiteti matematika yo'nalishida tahsil olyapman. Barcha yoshlarni ushbu tanlovlarda faol qatnashishga chorlayman – bu sizning kelajagingiz uchun muhim qadam!

Dunyoda farzand muvaffaqiyatidan boshi osmon qadar yuksaladigan ota-onalar quvonchiga ne yetsin! Mazkur tashabbusli olimpiada g'olib va sovrindor o'quvchilari ota-onalariga yuzlanamiz.

Najmiddin Ibrohimov:

– Alhamdulillah, bugun qizim Sitara "Umidli yoshlar" olimpiadasida "Ingliz tili" fanidan faxrli o'rinni egalladi. Kelajakda bundan-da katta yutuqlarga erishishga ishonaman. Uning mehnati, sabri va tinimsiz harakati o'z samarasini berdi. Bu yutuqda ustozlar mehnati yotibdi. Qizim, sen bilan faxrlanaman va yanada katta yutuqlar tilayman.

Shogirdlar kamolidan, natijasidan muallimlarimiz ham ishtiyoq olgay, kasbidan quvongay. O'quvchilari mazkur tashabbusli olimpiadada g'olib va sovrindor bo'lgan muallimlar bilan gurunglashamiz.

Parizod Hamidova, 21-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi:

– Qishlog'imiz juda qadimiy va katta bo'lib, bu qishloqqa Ollohning nazari tushgan desam mubolag'a bo'lmas. Sababi, bu yerdan Murod Muhammad Do'st kabi yozuvchilar, Dilorom Yormatova, Pirnazar

Inklyuziv ta'lim

Har bir o'quvchining
qalbiga yo'l bor

Ta'lim maskani faqat bilim beriladigan joy emas, balki qalbilar tarbiyalanadigan, insoniy fazilatlar kamol topadigan muqaddas dargoh. Har bir bolaning o'z olami bor. Uni anglash uchun esa avvalo mehr ko'zlari kerak.



Bugun ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar har bir bolaning huquqi va qadr-qimmatini ta'minlashni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim ana shu ezuq maqsadning amaliy ifodasidir. Bu tizim alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni jamiyatdan ajratmagan holda tengdoshlari bilan bir safda o'qitish, tarbiyalash va qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi.

Sinfimda alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchim bor. Dastavval uning jamoaga moslashuvi oson kechmadi. Diqqatni jamlash, topshiriqlarni mustaqil bajarish, o'qish va yozish jarayonida qiynalardi. Ammo har bir bolaning qalbiga yo'l bor – faqat

sabr va to'g'ri yondashuv kerakligini yana bir bor his qildim. Faoliyatimda differensial yondashuv, kichik qadamlar metodi, rag'batlantirish va vizual vositalardan keng foydalanaman. O'sha o'quvchim uchun topshiriqlarni soddalashtiraman, ko'rgazmali material va piktogrammalar orqali tushuntiraman. Har bir kichik yutug'ini alohida e'tirof etaman. Dars jarayonida uni jamoaviy ishlarga faol jalb qilaman. Juftlikda ishlash, rolli o'yinlar, sahnalashtirish metodlari orqali ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilaman. Uning har bir ijobiy o'zgarishi men uchun katta quvonch.

Avvallari tortinchoq bo'lgan bola bugun qo'l ko'tarib javob berishga harakat qilmoqda, vazifalarni mustaqil bajarmoqda. O'qituvchi uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak!..

Sanobar NOSIROVA,
Parkent tumanidagi
46-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Davronov kabi olimlar, xullas har sohadan o'z kasbining ustalari yetishib chiqqan va bu jarayon hamon davom etmoqda. Ular o'zlaridan keyingi yosh avlodni o'zlaridan-da kuchliroq, muvaffaqiyatli qilamiz, deya ajoyib tashabbuslarni amalga oshirib kelishmoqda. Shunday tashabbuslardan biri "Umidli yoshlar" tashabbusli fan olimpiadasidir. Bu olimpiadani tashkil qilgan yigitlarimiz kelajak avlodga bir buyuk ilm-ma'rifat ziyosini taratmoqda, desam adashmayman. Mana bugun 6-mavsum bo'lib o'tdi. Ingliz tili fani o'qituvchisi sifatida bu olimpiadada o'quvchilarim bilan birgalikda 4 yildan beri qatnashib kelamiz.

Musobaqaning o'ziga xos, boshqalari-ga o'xshamaydigan jihatlari mavjud. Masalan, bu olimpiadaga mehmon sifatida yetuk olimlar, yozuvchilar taklif qilinishi o'quvchilarga yanada ko'tarinki ruhiyat bag'ishlaydi. Bundan tashqari, g'oliblarni rag'batlantirishda ular bilan birga o'qituvchilari ham rag'batlantirilishi bu o'qituvchilarni ham o'quvchilarini kuchliroq qilib tayyorlashga undaydi, boshqa maktab o'qituvchilari bilan do'stona raqobat o'rnatishadi. Turli maktab o'quvchilari o'zaro do'stlashadi. Olimpiada g'oliblariga 6 oylik o'quv kursi xarajatlari qoplab berilishi esa o'quvchilar qiziqishini har tomonlama oshirib kelmoqda. Olimpiadada ingliz tili fanidan test sinovlaridan tashqari esse yozishning ham mavjudligi o'quvchilarga xalqaro sertifikatlariga tayyorgarlik vazifasini o'tab bermoqda.

Men bu olimpiadaning tashkilotchilari va homiylaridan juda minnatdorman, kelajakda xalqaro olimpiada darajasiga ko'tarilishini, bundan-da keng qamrovga ega bo'lishini tilayman. Olloh nasib qilsa men ham olimpiada homiylari qatorida bo'lishni niyat qilganman!

Tashabbusli fan olimpiadalari doirasida qo'shimcha sifatida "Qishlog'imiz kitobxonlari" tanlovi ham ikkinchi yildirki, keng qiziqish bilan o'tkazildi. Bunda tanlov 5–8-sinflar, 9–11-sinflar va kattalar o'rtasida tashkil etilganligi e'tiborimizni tortadi. Alohida qayd etish kerakki, kitobxonlik tanlovida kattalar o'rtasida uy bekalarining ham faol ishtirok etayotganligi shak-shubhasiz quvonarli. Joriy mavsumdagi "Qishlog'imiz kitobxonlari" tanlovi g'oliblari o'z fikrlari bilan bo'lishdi.

Muqaddas Norbo'tayeva, uy bekasi, kattalar o'rtasida tanlov g'olibi:

– Avvalo ushbu olimpiadani tashkil etgan tashkilotchilarga shunday imkoniyat yaratib bergani uchun samimiy minnatdorchilik bildiraman. Bu yerda juda kuchli va iqtidorli yoshlar bilan tanishganimdan xursandman. Hammamiz birgalikda o'rganib, rivojlanishda davom etamiz, deb o'ylayman. Olimpiada doirasida "Qishlog'imiz kitobxonlari" tanlovining o'quvchi yoshlardan alohida kattalar uchun ham tashkil etilganligi bizni nihoyatda quvontirdi. Chunki uyda ota-ona kitob o'qisa, farzandlar ham, albatta, kitob o'qiydi. Natijada uy bekasi bo'lsak-da, ilmiy avlodni tarbiyalashga o'zimizning munosib hissamizni qo'sha olamiz, deb hisoblayman.

Fikrimizcha, bugungi tashabbusli olimpiada ishtirokchilarining barchasi g'olib. Sabab – ular ilm sari dadil qadam tashlashgan o'quvchi yoshlar, ularga ta'lim berib, yo'naltirayotgan muallimlar, oilasida kitobxonlikda namuna bo'layotgan kattalar albatta olayotgan ilmlari, qilayotgan mehnatlari natijasini ko'rgay. Bunday ilm tashabbuslarini kengaytirib borish shubhasiz millatni yuksaltirgay.

Samariddin ELMIRZAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Iqtidorli yoshlar – yurt kelajagi

BIR KUNI SAMOLYOT MENI MANZILIMGA ELTISH UCHUN UCHDI!

– 12 yoshimdan buyon xitoy tilini o'rganaman. HSK 4 (Xitoy tilini bilishning B2 darajasi) ni olganimdagi hayajonimni tasvirlab berolmayman. Yangi til o'rganish, umuman, ilm o'rganish doim mashaqqatli yo'lni bosib o'tishni talab qiladi. Bu yo'lda bo'shashmasangiz, yakuni albatta quvontirarkan: bir kuni samolyot manzilimga eltish uchun bulutlar bag'riga otildi, go'yo uning ichida men va orzularimdan boshqa hech kim, hech narsa yo'q edi. Xitoyga o'qish uchun yo'l oldim...



Darhaqiqat, bugun ta'lim davlatlar o'rtasidagi strategik hamkorlikning muhim ko'prigiga aylandi. Quvonarlisi, bu imkoniyatlardan foydalanayotgan o'zbekistonlik yoshlar safi yildan yilga kengaymoqda. Ana shunday tashabbuskor, intiluvchan yoshlardan biri Xitoy hukumati tomonidan talabalar uchun ajratiladigan CSC(China Scholarship Council) 100 foizlik grantini qo'lga kiritib, Pekin chet tillari universiteti Xitoy tilini xalqaro o'qitish(International Chinese Language Education) yo'nalishi 3-kursida (bakalavr) tahsil olayotgan Vasila Akramxo'jayeva bilan suhbatlashdik.

– CSC(China Scholarship Council) granti haqida batafsil ma'lumot bersangiz. Bu grant haqida kimdan eshitib, qiziqib topshirdingiz? Ushbu grantning taqsimlanish jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi? Bu jarayonda qaysi sinov siz uchun qiyin yoki hayajonli bo'ldi?

– CSC(China Scholarship Council) – Xitoy Xalq Respublikasi davlat granti hisoblanib, 1996-yili joriy qilingan. Ushbu grant talabgorlarning bilim va salohiyatiga ko'ra, to'liq(100 foizli) yoki qisman foizli berilishi mumkin. To'liq grant o'qish xarajatlari(kontrakt), 12 oy davomida stipendiya, sug'urta va talabalar uchun yotoqxonani o'z ichiga oladi. Qisman foizli grant esa o'qish xarajatlari(kontrakt)ni qisman to'lab beradi.

CSC(China Scholarship Council) granti haqida birinchi marta ustozlarimdan eshitganman. Ushbu grant (xitoy tilini bilish darajasi yuqori bo'lgan talabgorlar o'rtasida) mutaxassislar tomonidan adolatli taqsimlanadi. Jarayon kompyuter orqali suhbat tarzida kechadi. 7-8 kishidan iborat mutaxassis bir qancha topshiriqlar orqali topshirayotgan yo'nalishigizga mos hamda xitoy tilini bilish (tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish) salohiyatingizni aniqlaydi.

Hujjat topshirish uchun maktab, litsey yoki professional ta'limni tugallagan bo'lishingiz, xitoy tili yoki darslaringiz olib boriladigan til(masalan, Biznesni boshqaruv yo'nalishi ingliz tilida olib borilsa, ingliz tili)ni bilish xalqaro sertifikatigiz bo'lishi lozim. Agar yo'nalishingiz uchun mos darajada til bilmasangiz, 1 yil til kursi, 4 yil mutaxassisligingiz bo'yicha, jami – 5 yil o'qishingizga to'g'ri keladi.

Albatta, imtihon jarayonlari har bir qatnashuvchi uchun hayajonli bo'lsa kerak. Shuningdek, men uchun ham juda hayajonli o'tgan. 6-7 yillik bilimlarimga ishonchim yuqori bo'lsa-da, imtihon boshlangach, professor va mutaxassislar qarshisida kuchli qo'rquv va hayajon bosdi. Oradan bir necha daqiqa o'tib, o'zimni qo'lga olib, dadillashdim va aynan mana shu qadam meni bugungi muvaffaqiyatlarimga eltdi. Ya'ni, avvalo, tayyorgarlik puxta bo'lishi lozim, biroq kishi uni kerakli vaqtda namoyon qila olishi ham kerak ekan.

– CSC(China Scholarship Council) granti taqsimoti qatnashuvchisi sifatida Xitoyning ushbu grant tizimi talabgorning qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor beradi deb baholaysiz?



– O'ylashimcha, bu grant talabgorning tarbiyasi, bilimi, dunyoqarashi, erishgan yutuqlari, til bilish darajasi, kelajakdagi maqsadlari, jamiyatdagi(unga bildirilgan tavsifnomalar orqali) faolligiga e'tibor beradi. Bu jarayonda men uchun ayniqsa xitoy tilini bilish HSK 4 sertifikatim juda katta rol o'ynagan. Xitoyga borgach o'z ustimda ishlab, HSK 6 (Xitoy tilini bilishning eng yuqori darajasi – C2) sertifikatini qo'lga kiritdim.

– Ma'lumki, O'zbekiston OTMLarida talabalarining o'zlashtirishi, davomatiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Xitoyda baholash tizimi qanday? Ular ta'lim jarayonida asosan nimaga e'tibor qaratishadi?

– Pekin chet tillari universitetida talabalar har semestrda 100 ballik baholash tizimida baholanadi. Xuddi O'zbekistondagidek oraliq va yakuniy imtihonlar mavjud bo'lib, o'tish bali minimum 60 ball, yakuniy imtihon ballari eng asosiy ball hisoblanadi. Jarayonda davomat, darsga kech qolmaslik, faol qatnashish, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga alohida 30 ball ajratilgan.

Talaba darsga 4 daqiqagacha kech qolsa, bu holat doimiy takrorlanmaydigan bo'lsa, ball ayirilmaydi. Agar 5–9 daqiqa vaqt oraliq'ida kechiksa 0,5 ball yo'qotadi. Agar 10 daqiqadan ortiq kechiksa 1 ball, 20 daqiqa kechikilsa, darsga kelmagan hisoblanadi. Bir para darsga kelmagan talaba (sababiga ko'ra) 1 balidan 2 balgacha yo'qotadi. Shu sabab, talabalar darslarni qoldirmaslikka, vaqtda va faol qatnashishga harakat qilishadi. Bu – adolatli va talabalarni yanada mas'uliyatli bo'lishga undaydigan tizim deb o'ylayman.



– Siz tahsil olayotgan universitetda talabalar asosan qaysi xorijiy davlatlardan kelib o'qishadi?

– Universitetimizda Yaponiya, Koreya, Vietnam, Malayziya, Tailanddan kelgan talabalar soni ko'proq.

– Sizningcha, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun Xitoy tajribasidan nimalarni olish mumkin?

– O'zbekiston ta'lim tizimi Xitoynikidan qolishmaydi. Ammo Xitoy oliy ta'lim tizimidagi ba'zi jihatlarini o'zlashtirish yanada yaxshi samara beradi deb o'ylayman. Masalan, imtihonlarda shaffoflik tizimini kuchaytirish, stipendiyalar miqdorini oshirish, dars jarayonlari va natijalarga yanada jiddiyroq qarash, chet ellik talabalar qiziqishini oshirish uchun grantlarni ko'paytirish va davlatimiz madaniyati, urf-odatlarini targ'ib qilish lozim.

– Xalqaro grant yutish istagidagi yoshlarga 3 asosiy tavsiyangiz nima bo'lardi?

– Har daqiqamizning qadriga yetaylik. Zero, bu qimmatli vaqt nafaqat o'z kelajagimiz, balki O'zbekiston rivoji uchun ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Har doim muayyan reja bilan harakatlanaylik. Chunki o'zimiz uchun yaxshi kelajak yaratsak, kelgusida yana kimningdir porloq kelajagi uchun yo'l ko'rsata olamiz. Hechqursa, namuna bo'la olamiz.

Harakatdan to'xtamaylik. Katta-katta maqsadlar qo'yib, qadam bosishdan cho'chimaylik. Dunyo qanchalik keng, qanchalar mo'jizaga to'la?! Ularni zabt etish kaliti esa ilm! Ertalar tugamaydi, orzularingizga bugun qadam tashlang!

– O'qishni yakunlagach, faoliyatingizni qayerda, qanday tasavvur qilasiz? Kelgusi rejalaringiz qanday?



– Magistraturani ham Xitoyda o'qimoqchiman. Oliy toifali xalqaro xitoy tili o'qituvchisi bo'lib, keyin O'zbekistonda ish faoliyatimni davom ettiraman. Yurtimizda xitoy tiliga ixtisoslashtirilgan maktablar, o'quv markazlari, xususiy universitetlar ochishni maqsad qilganman. Bundan tashqari, yaqin kelajakda Zulfiya nomidagi davlat mukofotini qo'lga kiritish harakatidaman.

“Ma’rifat” muxbiri
Shahnoza YANGIBOYEVA
suhbatlashdi.

Tajriba

Matematik savodxonlikni oshiramiz



Boshlangʻich sinflarda matematika darsini zamonaviy metodlardan foydalangan holda tashkil etish oʻquvchilarda nafaqat hisoblash koʻnikmasini, balki mantiqiy tafakkur, tahlil qilish, solishtirish va muammoli vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, “Muammoli taʼlim” metodida oʻqituvchi oʻquvchiga tayyor qoida yoki yechimni bermaydi, aksincha savol yoki muammoli vaziyat qoʻyadi. “Qanday qilib 10 sonini uchta turli usul bilan yigʻindi koʻrinishida ifodalash mumkin?” kabi.

“**Aqliy hujum**” metodi orqali oʻqituvchi oʻquvchilarga qisqa vaqt ichida turli variantlarni aytish talab etiladigan savollar beradi. Masalan, maʼlum bir sonni hosil qilish usullari, berilgan sonni qanday sonlarga ajratish mumkinligi yoki ogʻzaki hisoblashga doir tezkor savollar beriladi. Oʻquvchilar esa turli yechimlarni taklif etadi.

“**Klaster**” metodi esa oʻrganilayotgan mavzuni tizimli va tushunarli shaklda umumlashtirishga yordam beradi. Bu usulda doskaga asosiy soʻz yozilib, atro-fida mavzuga bogʻliq tushunchalar joylashtiriladi. Masalan, koʻpaytirish mavzusi oʻrganilayotganda koʻpaytuvchilar, koʻpaytma, takroriy qoʻshish, jadval va amaliy masalalar bir-biri bilan bogʻlanadi. Ushbu metod oʻquvchilarning mavzular oʻrtasidagi bogʻliqlikni anglashi, bilimini

tizimlashtirish va eslab qolishiga yordam beradi.

Matematika darsida oʻquvchilarni juftlikda ishlashga jalb qilish ham samarali natija beradi. Bu jarayonda oʻquvchilar ikki kishidan iborat boʻlib, birgalikda misollar yechadi, bir-biriga savol beradi yoki bajarilgan ishni tekshiradi. Bunday hamkorlik oʻquvchilarning oʻzaro muloqotini rivojlantiradi, xatolarni tez aniqlashga yordam beradi hamda uyatchan oʻquvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Guruhda ishlash esa oʻquvchilarda jamoaviylik va masʼuliyat hissini shakllantiradi. Sinf kichik guruhlarga boʻlinib, har bir guruhga alohida topshiriqlar beriladi. Bu jarayon oʻquvchilarning oʻz fikrini himoya qilish, boshqalarni tinglash va birgalikda qaror qabul qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, sogʻlom

raqobat muhitini yaratib, dars samaradorligini oshiradi.

“**Differensial taʼlim**” metodida oʻquvchilarning bilim darajasi hisobga olinib, ularga turli murakkablikdagi topshiriqlar beriladi. Kuchli oʻquvchilar uchun mantiqiy masalalar, oʻrta darajadagilar uchun standart masalalar taklif etiladi.

“Kim tez?”, “Matematik domino”, “Zanjirli misollar”, “Sonlar poygasi” kabi samarali oʻyin texnologiyalari orqali oʻquvchilar hisoblash amallarini qiziqarli tarzda oʻrganadi.

“**Kim tez?**” oʻyini oʻquvchilarning ogʻzaki hisoblash tezligini oshirishga xizmat qiladi. Oʻqituvchi ketma-ket misollar beradi va kim birinchi boʻlib toʻgʻri javob topsa, ragʻbatlantiriladi. Bu oʻyin diqqatni jamlash, tez fikrlash va hisoblash malakasini rivojlantiradi.

“**Matematik domino**” oʻyini orqali misollarni toʻgʻri javoblari bilan moslab zanjir hosil qiladilar. Kartochkaning bir tomonida misol, ikkinchi tomonida esa javob yozilgan boʻladi. Oʻquvchilar mos javobni topib, domino tartibida joylashtiradi. Ushbu oʻyin mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va oʻquvchilarning mustaqil ishlashiga yordam beradi.

“**Zanjirli misollar**” usulida har bir keyingi misol oldingi misolning javo-

bi asosida davom ettiriladi. Oʻquvchilar diqqat bilan hisoblab borishi kerak boʻladi, aks holda butun zanjir notoʻgʻri ketadi. Bu usul oʻquvchilarning diqqatini jamlash, ketma-ket fikrlash va aniqlik bilan ishlash koʻnikmalarini rivojlantiradi.

“**Sonlar poygasi**” oʻyini esa sonlar ketma-ketligini yaxshi oʻzlashtirishga yordam beradi. Bu oʻyinda maʼlum qonuniyat asosida sonlar yozib boriladi yoki berilgan songa birinchi boʻlib yetib borishga harakat qilinadi. Masalan, juft sonlarni yozish, maʼlum songa qoʻshib borish yoki kamaytirish kabi topshiriqlar beriladi. Bu oʻyin tezlik, aniqlik va matematik tafakkurni rivojlantiradi. Oʻyin orqali oʻrganilgan bilimlar oson va mustahkam esda qoladi. Bundan tashqari, hayotiy vaziyatlarga asoslangan metodlar ham zamonaviy hisoblanadi. Masalan, doʻkon, bozor, transport bilan bogʻliq misollar asosida masala tuzish va yechish orqali oʻquvchi matematikani real hayot bilan bogʻlashni oʻrganadi.

Dars yakunida qisqa testlar, interaktiv savollar yoki oʻzini baholash usullari orqali oʻquvchilar bilimi tahlil qilinadi.

Sitora XOLOVA,
Romitan tumanidagi
3-maktabning 1-toifali boshlangʻich
sinf oʻqituvchisi

Dolzarb mavzu

Boshlangʻich taʼlimda ingliz tilini qanday oʻqitasiz?

Boshlangʻich sinflarda ingliz tilini oʻqitish jarayoni oʻquvchilarning asosiy kommunikativ, fonetik va leksik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan murakkab va koʻp qirrali faoliyatdir.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari (6–10 yosh) rivojlanish psixologiyasiga koʻra bilish faoliyatining obrazli va emotsional bosqichida boʻladilar. Ularning diqqati nisbatan qisqa muddatli boʻlib, oʻquv faoliyati jarayonida tez-tez faoliyat turini almashtirib turish talab etiladi. Shu bois, ingliz tilini oʻqitishda abstrakt tushunchalardan koʻra, aniq obrazlar, ranglar, harakat va oʻyin elementlariga asoslangan metodlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yosh davrida bolalarda eshitish orqali qabul qilish bilan bir qatorda, koʻrish va harakat orqali oʻrganish kuchli rivojlangan boʻladi. Ayniqsa, fonetik materiallarni oʻzlashtirishda koʻpkanalli (multisensory) yondashuv yuqori natija beradi.

Amaldagi pedagogik tajribalar tahlili shuni koʻrsatadiki, ingliz alifbosini oʻrgatishda koʻpincha mexanik yodlashga asoslangan usullar qoʻllaniladi. Bunday yondashuv oʻquvchilarning qisqa muddatli xotirasiga tayanadi va bilimlarning barqarorligini taʼminlamaydi. Natijada oʻquvchilarda darsga boʻlgan qiziqish pasayadi, nutqiy faollik sustlashadi.

Shuningdek, koʻplab darslarda alifbo oʻrgatish jarayoni real hayotiy vaziyatlardan uzilgan holda olib boriladi. Bu esa PISA va PIRLS dasturlarida talab etiladigan funksional savodxonlik kompetensiyalarining yetarli darajada shakllanmasligiga sabab boʻladi.

Zamonaviy metodik yondashuvlar va ularning ahamiyati

Zamonaviy taʼlim paradigmasida oʻquvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni faol yaratuvchi subyekt sifatida qaraladi. Konstruktiv-

tik yondashuvga koʻra, bilim oʻquvchining shaxsiy tajribasi asosida shakllanadi. Kommunikativ metod esa tilni muloqot vositasi sifatida oʻrganishni taqozo etadi.

PIRLS dasturi oʻquvchilarning matnni tushunish va talqin qilish koʻnikmalarini baholashga qaratilgan boʻlsa, PISA dasturi bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qoʻllay olish kompetensiyasini oʻlchaydi. “ABC Garden” yondashuvi ushbu talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan boʻlib, boshlangʻich bosqichdayoq funksional savodxonlik elementlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“ABC Garden” tushunchasining didaktik mohiyati

“ABC Garden” – bu ingliz alifbosini oʻrgatishga doir metodik model boʻlib, unda harf va tovushlar tizimi oʻquvchining idrokiga yaqin boʻlgan tabiat obrazlari orqali talqin qilinadi. Mazkur yondashuv didaktikaning “yaqindan uzoqqa”, “oddiydan murakkabga” tamoyillariga toʻliq mos keladi. Har bir harf aniq semantik birlik bilan bogʻlanib, oʻquvchining ongida barqaror assotsiativ zanjir hosil qiladi.

Didaktik nuqtayi nazardan model uch asosiy komponentdan iborat: (1) vizual obraz (bogʻ elementi), (2) fonetik birlik (tovush), (3) leksik birlik (soʻz).

Ushbu komponentlarning bir vaqtda qoʻllanilishi koʻpkanalli oʻzlashtirishni taʼminlaydi va bilimlarning xotirada uzoq muddat saqlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur kompetensiyalar boshlangʻich sinfdayoq shakllantirilishi oʻquvchining keyingi taʼlim bosqichlarida muvaffaqiyatli oʻqishini taʼminlaydi.
Nargiza GʻANIYEVA,
Payariq tumanidagi
58-maktabning
ingliz tili oʻqituvchisi

Taklif

Organik kimyo va organik birikmalar inson hayotida muhim rol oʻynaydi. Yangi moddalar tezlik bilan insoniyat muammolarini yechib, qulayliklar yaratmoqda. Hozir organik birikmalar asosida rivojlanayotgan sanoat turlari koʻp. Masalan, xalq xoʻjaligi, qishloq xoʻjaligi, avtomobil ishlab chiqarish, temiryoʻl, aviatsiya, samolyotsozlik, polimerlar ishlab chiqarish, lok-boʻyoq, oziq-ovqat, neft-kimyo, kiyim-kechak sanoati – ishlab chiqarishning barcha sohalarida nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Organik kimyo fanida yangilik

Organik kimyoda amaliy kimyoning rivojlanishi natijasida maʼlumotlar toʻplanib qoldi, shu asnoda ularni umumlashtiradigan, kimyoning kelajak rivojlanishiga yoʻl ochadigan nazariyalar kerak edi. Bu nazariyani rus olimi Aleksandr Butlerov yaratib, birinchi marta 1861-yili nemis tabiatshunoslari syezdida eʼlon qildi. Uning taʼrifi shunday edi: “Murakkab zarrachaning kimyoviy tabiati uning tarkibini tashkil etuvchi moddiy zarrachalarning tabiati, ularning miqdori va kimyoviy tuzilishi bilan belgilanadi”. Bu taʼrif organik birikmalar tuzilishi nazariyasining muhim qismi hisoblanadi, bu esa organik sintezning misli koʻrilmagan darajada muvaffaqiyatini taʼminladi, hozir ham barcha tadqiqotlar uchun yoʻl koʻrsatuvchi asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2010-yili birinchi bor Oʻzbekiston Milliy universiteti “Organik kimyo” kafedrası professori Habibulla Tojimuhammedov tomonidan fanga yangi zamonaviy taʼrif kiritildi: “Organik birikmalarning xossalari uning tarkibiga, kimyoviy, fazoviy, elektron tuzilishi hamda birikma atrofıdagi muhit va sharoitga bogʻliq”. Bu taʼrifga muhit va omil nima uchun kiritilgani amalda tajribalar asosida koʻrsatildi hamda tasdigʻini topdi.

Bu kabi taʼriflar organik kimyo fani rivojida yangidan yangi kashfiyotlar va yutuqlarga olib keladi. Endilikda bu taʼrif darslikka kiritilishi, maktab, kollej, politexnikum, oliy oʻquv yurtlarida foydalanilishi kerak.

Muqaddas EGAMBERDIYEVA,
Yangiyoʻl tumanidagi
1-politexnikum
kimyo fani oʻqituvchisi

Undov



Yoshim 65 da. Toshkent shahridagi University of Business and Science Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar fakulteti tarix yo'nalishi talabasiman. Yoshligimdan bilim olish, nimadir o'rganishga qiziqardim.

Maktab ta'limidan so'ng Andijon davlat chet tillar institutining tayyorlov kursida ingliz tili yo'nalishida tahsil oldim. Sog'lig'im bilan bog'liq sabablar tufayli o'qishni davom ettira olmagan bo'lsam-da, ilgama bo'lgan intilishim so'nmdai.

Bugun University of Business and Scienceda yaratilgan keng imkoniyatlar meni yanada ko'proq izlanishga undamoqda. Zamonaviy auditoriyalar, raqamli texnologiyalar, tajribali ustozlar va turli ilmiy

Beshikdan qabrgacha ilm izla

anjumanlar talabalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Qiziqishlarim asosan ta'lim tizimidagi zamonaviy yondashuvlar bilan bog'liq. Xususan, "Dunyo miqyosida ta'lim berishda PISA metodining pedagogik va psixologik ahamiyati" mavzusi ustida izlanishlar olib bormoqdaman. Mavzu doirasida bir necha ilmiy konferensiyalarda maqolalarim chop etildi. Yoshlarga bilim olishga intilish, izlanish va mehnatsevarlik bilan namuna bo'layotganimdan bag'oyat xursandman.

Kelajakda ta'lim sohasida faoliyat yuritib, zamonaviy bilimlarni yosh avlodga yetkazish, ularni Vatanga sodiq, fidoyi va mas'uliyatli insonlar etib tarbiyalashni maqsad qilganman.

Ilm egallash va ulashish uchun hech qachon kech bo'lmaydi. Donolarimiz aytganidek, beshikdan qabrgacha ilm izlashimiz lozim. Inson bemaqsad, umrini behuda o'tkazib yashashdan qo'rqishi kerak...



Shamsiddin SULTONOV,
University of Business and
Science talabasi

Jarayon

Milliy texnik malakani baholash tizimi yo'lida

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-maydagi "Koreya xalqaro hamkorlik agentligi(KOICA) granti asosida milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi(NTQTT) faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Mazkur tashabbus mamlakatda kasbiy malakani baholash tizimini xalqaro talablarga moslashtirish va malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan. 2022–2025-yillarga mo'ljallangan loyihaga Koreya xalqaro hamkorlik agentligi tomonidan 4 million AQSH dollari miqdorida grant mablag'lari ajratilib, har yili 1 200 nafar talabgorning kasbiy malakasini baholash, shuningdek, 600 nafar ustoz va mutaxassislar malakasini oshirish rejalashtirilgan edi.

Milliy texnik malakani baholash markazi uch muhim yo'nalishni qamrab oladi: avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, elektr va elektronika hamda payvandlash ishlari. Loyiha doirasida Koreya Inson resurslarini rivojlantirish xizmati(HRDK)ning tajribali mutaxassislari hamda vazirlik xodimlari ishtirokida ishchi guruh tashkil etilib, ushbu uch kasb yo'nalishi bo'yicha ikki yil davomida kasb standartlari va baholash vositalari ishlab chiqildi.

2025-yil 21-may kuni Toshkent shahri Kasbiy ko'nikmalar mintaqaviy markazida ilk bor tajriba-sinov tariqasida uch muhim yo'nalish bo'yicha malakani baholash imtihonining nazariy bosqichi o'tkazildi. Mazkur bosqichda jami 251 nafar talabgor(Toshkent shahridan 140 nafar, Samarqand viloyatidan 61 nafar, Qashqadaryo viloyatidan 50 nafar) malakasini tasdiqlash uchun ariza topshirgan. Ularning 90 nafari, ya'ni 44 foizi nazariy bosqichdan muvaffaqiyatli o'tib, amaliy bosqichda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Amaliy bosqich esa 3–5-iyun kunlari hududiy kasbiy ko'nikmalar mintaqaviy marka-



zlarida bo'lib o'tdi. Jumladan, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash yo'nalishi bo'yicha Toshkent shahrida 15 nafar, elektr va elektronika yo'nalishi bo'yicha Qashqadaryo viloyatida 40 nafar, umumiy payvandlash ishlari yo'nalishi bo'yicha esa Samarqand viloyatida 35 nafar nomzod amaliy sinovdan o'tkazildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, amaliy bosqichdan 30 nafar nomzod(avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash kasb yo'nalishi bo'yicha 9 na-

far, elektr va elektronika kasb yo'nalishi bo'yicha 5 nafar hamda umumiy payvandlash ishlari bo'yicha 16 nafar) muvaffaqiyatli o'tdi. 26-iyun kuni esa ularga malaka sertifikatlari topshirildi.

Shuningdek, markaz 5-sentabr kuni davlat ro'yxatidan o'tkazilib, ishlab chiqilgan kasb standartlari va baholash vositalarini takomillashtirish bo'yicha Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti bilan hamkorlikda izchil ishlar olib borilmoqda.

Xususan, joriy yil 22-yanvardan malaka oshirish darslarining 2-bosqichi boshlandi. Ushbu malaka oshirish kurslarida Kasbiy ta'lim agentligi tasarrufidagi texnikumlarda faoliyat yuritayotgan 30 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Mazkur kurs Koreya Respublikasining nufuzli oliy ta'lim muassasasi – KOREATECH ekspertlari bilan hamkorlikda tashkil etildi. Malaka oshirish darslari ikki(axborot texnologiyalari hamda mashinasozlik texnologiyasi) yo'nalishda olib borildi. 17-fevral kuni esa kursni muvaffaqiyatli yakunlagan o'qituvchilarga sertifikatlar topshirildi.

2026-yil iyun oyida payvandlash kasbi bo'yicha malaka baholash imtihonlarini o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, koreyalik ekspertlar bilan hamkorlikda imtihonni rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida tashkil etish belgilandi.

Bobomurod O'TAYEV,
Milliy texnik malakani baholash va
malaka oshirish markazi
direktor o'rinbosari

Millat mulki

Jadidlar davrini o'rganish

Neyrobiologiya tadqiqotlarida kitob o'qish miya faoliyatini yaxshilashi va atigi 6 daqiqada ruhiy holatni tetiklashtirishi xususida xulosalar mavjud. Demak, olam tashvishlarini bir lahza bo'lsa-da unutib kutubxonaga kelgan har qanday inson ruhiy xotirjamlik sari ilk qadamini tashlagan bo'ladi.

Toshkent viloyati "Turon" axborot-kutubxona markazida jadidlar davrini o'rganish borasida kutubxonlarga alohida qulayliklar yaratilmoqda. Nodir adabiyotlar bilan ishlash, informatika bo'limlari va boshqa bo'limlardagi sharoit bunga misol bo'la oladi. Yosh tadqiqotchilari, talaba va kutubxonlar jadid ma'rifatparvarlarimiz davrida chop qilingan ko'hna va nodir davriy nashrlar bilan yaqindan tanishmoqda. O'sha davr matbuotida yoritilgan har bir maqola, har bir fotosurat izlanuvchilar e'tiborini tortib, o'ziga xos tadqiqotlar dunyoga kelishiga zamin bo'lmoqda.

– Bizga hozir ustoz Ozod Sharafiddinovning jadidlar davrini qanday o'rganгани juda qiziq, – deydi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi Bayjol Baxit. – Misol tariqasida o'tgan asrning 50–60-yillarida jadidlar davrini o'rganish u yoqda tur-

sin, bu haqda hatto gapirish ham mumkin emas edi. Shaxsga sig'inish davri o'tgach Abdulla Qodiriydek yirik adabiyot namoyandalari nomigagina oqlangan. Ammo sho'roning qatag'on siyosati buqalamun tusiga kirib, senzura o'z ajdodlari, ma'rifatparvarlari hayoti va ijodini xolis o'rganishga yo'l qo'ymagan, davriy nashrlar ustidan nazorat kuchli bo'lgan. Boshqa tomondan esa go'yoki sovet matbuotida shaffoflik yaratilgani haqida afsonalar to'qilgan, ammo bularning barchasi qog'ozbozlikdan boshqa narsa emas edi.

"Turon" kutubxonasining nodir adabiyotlar bo'limida xuddi vaqt to'xtab qolgandek tuyuladi. Zamonaviy dizaynda bezatilgan xonada joylashgan javonlarda ma'lum davrlarga bo'lib joylashtirilgan ko'hna gazeta va jurnallar, nodir ensiklopediya va kitoblar kitobxonni xuddi avvalgi zamonlarga chorlab turgan-

dek tuyuladi. Bu tuyg'uni qo'lingizga olgan eski gazetani ochishingiz bilan his qilasis.

– Nodir adabiyotlar bo'limi eshigini ochib kirib kelishing bilan javondagi tabarruk nashrlarni ko'rib ajdodlar yaratgan asarlarning haybatini his qilmay bo'lmaydi, albatta, – deydi talaba Ruxshona Nuraliyeva. – Endi sho'ro paytida Stalin vafotidan keyingi ochiq shaxsga sig'inish kirdikorlarini matbuotga olib chiqish bahonasida ba'zi bir yengilliklar shabadası esgan paytlari Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimovdek zabardast adabiyotshunoslar jasorat bilan jadidlarni oqlash xususida ochiq tadqiqotlarni boshlab yuborishgani biz yoshlar kelajakda yangi tadqiqotlar olib borishimizga turtki beradi.

O'tgan asrning elliginchi yillari oxirida aynan qatag'onga uchragan ma'rifatparvarlarning hayoti va ijodini o'rganish faqat ma'ruzalarda og'zaki aytila boshlangani ham qandaydir ma'noda erkinlikdan bir mujda edi. Bu gaplarni aytish, vatanni ozod ko'rish niyatida qurbon bo'lgan adiblar va jamoatchilik vakillarining

shaxslari bilan qiziqish oson kechmagan. Ana shunday paytda mazkur tabarruk nodir adabiyotlar fondi, javonlarda saqlanib, nur taratib turgan bu kitoblar hamon mutlaqo yangi tadqiqotlarga ehtiyoj uyg'otadi.

Javonlarda ko'z qorachig'i kabi oras-ta qilib saqlanib kelayotgan yigirmanchi asr gazeta va jurnallari hamda kitoblar har qanday kutubxon xayolini ko'hna samimiyat gupurib turadigan davralarga olib ketgandek bo'ladi.

– **Meni bu yerdagi muhit juda hayajonlantirdi, – deydi 1-kurs talabasi Madina Ergasheva.** – Tasavvur qiling, bu yerda Qodiriy gazetalarni varaqlagan, Cho'lpon o'sha davr ensiklopediyalarini o'qib, yozilajak yangi asari uchun material izlagan. Endi o'sha davr ma'rifatparvarlar hayoti va ijodini yoritish uchun ustoz Ozod Sharafiddinov va Begali Qosimovlar qanday jasorat va kuch topdi ekan?! Axir, bu yerda jadidlar ruhi kezib yurgan deymiz, xuddi ular shunday bizning yonimizda o'tirib ko'zoynaklarini artib kitob mutolaa qilib o'tirgandek bo'ladi.

"Turon" kutubxonasini xalq orasida "Jadidlar kutubxonasi" deb ham atashadi. Ma'rifat peshqadamlarining tabarruk qo'llari tekkan bu nashrlarni saqlab kelayotgan kutubxona ijodiy jamoasiga chin dildan minnatdorlik bildirgimiz keladi.

Davron RAJAB

O'qituvchi kundaligidan

CHIROQ'I O'CHMAGAN UY

Tun. Sokinlik. Hamma shirin uyquda. Borliqni osuda sukunat qamrab olgan. Har kungidek otamning xonasi chirog'i yoniq! U ertangi kun darslariga tayyorlanib, ish daftarlariga nimalarnidir yozib, rejalashtirardi. Biz oila a'zolariga bu oddiygina bir holat bo'lib qolgan. Yoshimga yosh qo'shilib, uning duolari bilan OTMning matematika yo'nalishini tugallab, Toshkent shahridagi 136-maktabda matematika o'qituvchisi bo'lib ish boshladim. Kechki payt televizor ko'rib o'tirsam, otam:

– Rahmatulla, ertaga maktabga ishga borasanmi, – dedi menga sinchkovlik bilan qarab.

– Ha, boraman, ota, – dedim xotir-jam.

– Darsing bormi?

– Bor, 8-9-sinflarda ekan.

Otam birdan jiddiylashdi:

– Tayyorlanmaysanmi?

– E, 8-sinfda “Pifagor teoremasi”, 9-sinfda “Arifmetik progressiya” – bu mavzularni bilaman-ku, tushuntirib bera olaman.

– E, shunaqami, qani xonamga kirgin-chi, – deb yo'l boshladi otam.

Dars boshlandi: “*Dars o'tish – rejadagi mavzu, darslikning o'zidagina foydalanib, 25–30 minut gapirib, doskaga yozib-chizib, gapirib berishdangina iborat emas, bolam!*” Balki berilgan mavzu mohiyatini eng oson va qulay usulda, tushunarli qilib, undan hayotning qaysi o'rinlarida foydalanish yoki keyingi o'rinlarda bu mavzu qaysi murakkab mavzularni o'rganishda asos bo'lishi hamda o'quvchilarga mavzuni 12 minutda atroflicha tahlil qilib, yetkazib berish san'ati! Mavzu o'quvchilarga yanada qiziqarli bo'lishi uchun qo'shimcha adabiyotlardan izlanish kerak. “Pifagor teoremasi”ni o'taman, deding. Masalan, darslikda keltirilgan bir-ikki isbot bilan cheklanmay, Yuriy Vepkening “Pifagor teoremasining turli xil usuldagi isbotlari” kitobidan boshqa usullarni ham ko'rsatib berib, o'quvchilarning o'ziga boshqa usulda isbotlashi uchun yo'llanma bersang, nur ustiga nur bo'ladi. Tushundingmi?”...

Otam shu kuni kunlik ish rejani bosqichma-bosqich, tartib bilan tushuntirib berdi, keyin yana dedi: “Agar ish reja-ga beparvo bo'lib, “Baribir bu mavzu-ni bilaman!” qabilida ish tutadigan bo'lsang, borma maktabga, boshqa ish bilan shug'ullan! Unutmga, ota ham, ona ham, jamiyat ham o'zining eng qimmatli dilbandini ustozga ishonib topshiradi. Uning olim, fan arbobi bo'lib yetishi-shi, kamoli sening qo'lingda! Bu kasbning mashaqqati va zalvori ham shunda, bolam. Qachonki darsga tayyorlanmay yoki sayoz izlanib kirsang, o'z ustingda ishlamay qo'ysang, o'quvchi haqiga xiyonat qilgan bo'lasan”...

Mana, shu o'g'itlar aytilganiga ham salkam yarim asr bo'ldi. Yoshim yet-mishni qoralab qo'yg'an bo'lsa ham shu kungacha otamning pokiza ruhini bezovta qilib qo'yishdan qo'rqaman. Yillar o'tib nima uchun kechalari uyim-tizda yarim tunda ham chiroq yoniq turishi sababini angladim. Bir necha yil yonida o'tirib men ham ertangi kun-

gi darslarimga muntazam ravishda reja yozdim. Ba'zida uning reja yozishini kuzatib qolardim...

Ha, otam kechalari darsga tayyorlanganida har bir kun va har bir sinfda o'tadigan dars soatlariga nihoyatda jiddiy yondashib, puxta reja tuzar edi. O'quvchilarga muammoli bo'lgan har bir matematik jumla va atamalar ustida to'xtalib, masala, misollarni qayta-qayta ko'rib chiqib, yechimlarning tushunarli, oson va optimal usulini izlar edi. Kerakli holatlarda, masalan, 10-“A” va 10-“B” sinfga alohida-alohida rejai bo'lardi va o'z o'rmda qo'shimcha adabiyotlardan o'tilayotgan mavzularga mos bo'lgan va uning hayotga bog'lanadigan jihatlariga xos masalalarni topar edi. O'quvchilar qaysi joyda qiynalishini oldindan o'ylab, shunga qarab har bir sinf va o'quvchiga birdek yondashardi.

Do'stlarimning otasi ishdan qaytishi-da paketda turli xil shirinlik, o'yinchoqlar olib kelardi. Otam ham har 10–15 kunda uyga paket ko'tarib kelardi. Biz farzandlar juda yaxshi bilardikki, uning ichida o'quvchilarning tekshirishi kerak bo'lgan yozma ish daftarlari bo'lar edi. Lekin shirinlik va boshqa biz xohlaydigan yeguliklar uchun onamga pul berardi, birovdan kam yashamas edik.

Maktabda ish boshlaganimga 15 kunlar o'tgan. Ish stoli yonida ertangi kungi darslarim uchun tayyorgarlik ko'rayapman. Boshimni ko'tarib qarasam, otam ko'zoynagi ustidan qarab, kuzatib o'tirgan ekan. Shunda menga: “Har bir ishning oxiri chiroyli bo'lishi kerak, o'g'lim! Uning natijasidan ko'ngling to'lib, muroding hosil bo'lgan bo'lsa, sening yuzing yorug' bo'lgani. U esa insonni komillikka yetaklaydigan puxta rejali ishning shirin mevasidir! Rahmatulla, sen tabiatdagi tartibga bir e'tibor bergin-a. Ma'lumki, quyosh har kuni belgilangan vaqtda chiqadi va botadi. Yer o'z o'qi atrofida bir tomonga ma'lum tezlikda aylanadi va natijada kecha va kunduz almashadi. Sayyoralar orbitasidan chiqib ketmaydi. Suvning tog'dan pastga tomon oqishida ham ko'pchilik e'tibor bermaydigan tartib bor. U orqasiga qaytmaydi yoki to'xtab ham qolmaydi. Ana shu tartib dar-yolarni, hayotni, obodlikni yuzaga keltiradi. Chunki tartib bor joyda baraka, rivoj, taraqqiyot va insonni komillikka olib boruvchi yorug' yo'l mavjud. Uni amalga oshirish uchun ustozning ta'lim jarayonidagi tartibli shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ustozning har bir darsi aniq reja asosida o'tar ekan, o'quvchida unga

nisbatan hurmat va darsiga qiziqish ortadi. Masalan, mavzuni kechagi bilimlar bilan bog'lab, yangi bilimni qadam-ma-qadam ochib borish o'quvchini olg'a yetaklaydi. Bunga rioya qilsang, albatta har doim yuzing yorug' bo'ladi. Zero, elektronlarning bir tomonga tartibli harakati natijasida uyimizda chiroq yoniq, yorug'lik bo'ladi! Bu fizika ta'limotini esa sen juda yaxshi tushunasan. Demak, har bir ishdagi tartib insonni yorug'lik sari yetaklab, nurli yo'lga olib chiqar ekan! Menimcha, hammasini tushunding, bolam! Bu haqiqatdan yiroqlashmay, unga to'la amal qilishingga ishonaman”, deb bilagimni siqib qo'ydi.

XOTIMA

Eshitishimcha, bir yigit yarim tunda mashinasi bilan yo'lning chekka tomonidan sekin harakatlanardi. U xursand bo'lib mashinasini to'xtatib tushdi. Tun boshlanganiga anchagina vaqt bo'lgani uchun ko'chada endigina bir kimsa uchrab qolgan edi-da! Salom-alikdan so'ng falonchi o'qituvchining uyini topa olmayotgani, qidirib yurganini aytadi. U kishi o'ylanib turib, “Ustozning uyi shu ko'chada ekanini aniq bilasizmi?” deydi. “Ikki soatlardan beri topa olmayapman. Qaytib ketay desam, ustozni ko'rib kelaman deb Buxorodan kelayotgan edim. Mo'ljalimdagi yo'l ta'mirlanayotgan ekan. Aylanib o'tib kech qoldim-da. Shu mashinamda bir oyalar chamasi ustozning o'quvchisi – sinfdosh do'stimning to'yidan o'zim uylariga olib kelib qo'yg'an edim. Unda ham kun qorong'i edi-da, birodar”, deydi yigit bezovtalanib. “Uyimizga yaqin joyda o'qituvchi yashamaydi. Sizga maslahatim, shu yo'ldan boravering. Qaysi uyda chiroq yonib turgan bo'lsa, u uyda o'qituvchi yoki yosh bolali ayol yashaydi. Shunga e'tibor bersangiz, ajab emas, ishingiz bitsa”, deb u yigit bilan xayrlashadi.

Yigit minnatdorlik bildirib, yo'lida davom etadi. Oradan ko'p ham o'tmay, atrofdagi xonadonlar orasida hali ham chirog'i o'chmagan uy ko'rinadi. Endi yigit ko'chadagi mo'jazzina gulzordan bir oy oldin kelgan xonadoni shu ekanini darhol eslaydi. Deraza oynasini astagina ochiradi. Undan ko'zoynaklari bilan qaragan ustozining horg'in chehrasini ko'radi-yu, quvonib ketadi. Va butun umrini el farzandlarining qulf-u dilini ochish yo'lida mana shunday tunlarini kitob varaqlab o'tkazgan umridan rozi bo'lgan bu fidoyi, beg'ubor, kamtarin ustoziga tikila turib, ko'zlarida yosh qalqiydi...

Bu kichkinagina, lekin keng qamrovli hikoya el farzandlarining savodli bo'lishi, hayotdan munosib o'rin topib, komillikka erishishi yo'lida o'zining butun umrini baxshida qilgan barcha fidoyi ustozlarning ibratli hayot yo'lini ifodalovchi birgina chizgi, xolos!

Rahmatulla KARIMOV,
Uchtepa tumanidagi
81-IDUMning matematika fani
o'qituvchisi,
O'zbekiston xalq o'qituvchisi

Muallim siyrati



Katta kengliklarga yastanib ketgan Oqto'v va Qorato'v sir-sinoatlari haqida ko'p yillardan buyon izlanaman. Uni o'rganganingiz sari yangi topilmalar qarshilayveradi. Birda tog'ni kezib umri o'tgan geolog to'g'risida so'zlasam, yana birda qo'lida tayog'i bilan qo'y boqib yurgan cho'pon siyratini chizgim keladi. Ammo muallim siymosi har qachon va har dam eslagulik siymodir. Umrini yoshlar tarbiyasi va ta'limga bag'ishlagan ana shunday siymolardan biri Narzulla muallim Pirimov Nurotaning Qadoq qishlog'idan.

Nurotaliq marhum adabiyotshunos Haqnazar Xalilovning “Irfon” kitobini bundan ko'p yillar muqaddam o'qigandim. Garchand “Irfon” so'zi ko'proq diniy tarbiyani eslati-da, muallif unda sobiq tuzum davridagi qishloq maktablari, ularning hashar yo'li bilan bunyod etilishi, maktab ishchisidan tortib, oddiy muallimgacha bosh qo'shganini berilib so'zlaydi.

Hozirgi Nurotaning Sirtsiluv qishlog'idan To'ra va Soykechar qishlog'igacha, Chuya va Tikanligacha o'quvchilar o'qib yashaydigan katta maktab hashar yo'li bilan

Narzulla muallim aytgan bu fikr tez-tez yodimga tushadi. Ayniqsa bugun O'zbekistonning yosh matematiklari jahon sahnalarida yangi marralarni zabt etayotganida bu fanning bor mohiyatini ochib bergan fidoyi muallimlarimizni eslab turish hamisha qarz.

Keyinchalik Narzulla muallim davrida Qadoq qishlog'idagi 15-maktabdan yangi muallimlar avlodi yetishib chiqdi. Bekmurod Sunnatov, Ismat va Ahmad Pirimovlar, Zarif Jo'raqulov, Ibod Ulashev, yaqingacha oramizda bo'lgan Ro'ziyob Nurmuhamedov, Bahodir Norqobilov, Husnid-



ko'rmadim. Hayot davom etyapti. Yangi maktab, zamonaviy sinflarda dars o'tilayapti, yangi avlod murabbiylari ishlayapti va yangi avlod o'quvchilari voyaga yetmoqdalar. Menimcha, o'sha paytlari umumta'lim maktablarining o'qitish konsepsiyasi mukammal bo'lmagan, ammo titilib ketgan

NUROTALIK MUALLIM

quriladi. Maktab qurilishiga tuman partiya komitetida ma'sul lavozimda ishlagan O'tamurod Xalilov va o'sha paytdagi xo'jalik raisi Nurnazar Avazov boshchilik qilishadi. Maktab aholining katta mehnati, hashar yo'li bilan tog'dan daraxt tashishgacha, tom yopish va o'quvchilarning yotib o'qishlari uchun yotoq joyigacha birgalikda barpo etiladi.

ORZU SARI YO'L

Mulla Pirim Xo'jakeldiyev xonadonida voyaga yetgan Narzulla Pirimov bolaligidan ilm-fanga astoydil qiziqadi. U paytlar qishloqda maktab yo'qligi tufayli bolalar tuman markazida o'qitilardi. Dastlab Langar qishlog'ida, keyinchalik esa Nurota shahridagi sobiq Pushkin nomidagi 1-maktabda ta'lim olgach, Samarqand davlat universiteti matematika fakultetiga o'qishga kiradi. Universitetni tugallab kelgan yosh mutaxassislar maktablarga jalb etilgan. Narzulla muallim Sirtsiluv qishlog'ida dastlab o'qituvchi, keyin o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari bo'lib ishlaydi.

Ko'pni ko'rgan otaxonlar tashkilotchi rahbar Oqto'v va Qorato'v etaklaridagi ko'p ishlarga bosh-qosh bo'lgan O'tamurod Xalilov nomini hurmat bilan tilga oladilar. Narzulla muallimning ish tajribasi oshishi va rahbarlik tajribasining shakllanishida O'tamurod muallimning hissasi katta bo'lgan.

Narzulla muallim keyinchalik Qadoq qishlog'idagi yangi ochilgan o'rta maktabda o'quv ishlari bo'yicha direktor muovuni, direktor, so'ng yana 16-maktabda rahbarlik qiladi. 40 yillik muallimlikdan keyin nafaqaga chiqib, 67 yoshida bandalikni bajo keltirdi.

MATEMATIKA FAQAT RAQAMLAR EMAS

Narzulla muallim bizga 5-sinfda matematika fanidan dars bergan. Uning dars tajribasi qiziq tuyulardi, bu xotiralar hali ham esimdan chiqmagan. O'shanda “kosinus” va “sinus” farqini tushunmasak-da, muallimdan matematika fanining ahamiyatini yurak yutib so'raganim yodimda. “Matematika bu faqat raqamlar emas, butun borliq matematika qonunlari asosida yashaydi” degan edi shunda muallim.

din Sunnatov, Akmal O'tamurodov, Xolboy va Nurmuhammad Norboyevlar maktabning kelgusi ravanaqiga hissa qo'shdilar. Yana bir shogirdi Xayriddin Sunnatov SamDU matematika fakultetini bitirib, MDUda aspiranturada tahsil oldi, matematika fanlari nomzodi darajasiga erishdi. Tibbiyot fanlari doktori To'lg'in Isoqulov ushbu maktabni bitirib nufuzli tibbiyot muassasasiga rahbarlik qilib kelmoqda. Ushbu maktab bitiruvchisi To'lg'in Isomurodov O'ZMuning kimyo fakultetini tugallab, texnika fanlari doktori, professor ilmiy darajasiga erishdi.

Narzulla muallim mulla Pirim boboning to'ng'ich o'g'li bo'lgani uchun ukalarining hayotida o'z o'rinlarini topishi, oliy o'quv yurtlarida tahsil olishlariga ko'makchi va sababchi bo'lgan. Hatto ukalari Ismatilla muallim va Ahmadjon akalari unga havas qilib shu kasbni tanlashgan. Pirim boboning katta oilasiga hamma havasmand edi. Katta maktab jamoasining rahbari bo'lgan Narzulla muallim har kuni ishga o'tlanishdan oldin kenja ukasining uyida yashaydigan ota-onasidan har kuni ertalab duo olib keyin ishga otlangan. Ushbu tarbiya bugungi avlod rahbarlariga har jihatdan o'rmaq bo'lib fasilatirdi. Qolaversa, umrida hech bir insonni senlamagan, balki sizlab muomalada bo'lgan. Hayotdan o'tganiga ancha yillar bo'lsa-da, shogirdlari va hamsablari muallimni eslab, boshlab bergan egzu ishlarini davom ettirmoqdalar. 1989-yili bir guruh yoshlar maktabni tugallab mamlakatimizning turli o'quv yurtlari talabaligiga erishdik, birimiz huquqshunos, birimiz iqtisod, yana birimiz esa jurnalist bo'lib turli sohalarga sochilgan rizqimizni terib yuribmiz.

O'SHA AKADEMIYANI SOG'INAMAN

Maktabdagi o'qituvchilar xonasiga unda-bunda birda hayiqib, birda tortinib kirib turardik. Bu xonada qo'rto'kib o'tirgan fidoyi muallimlar bugun oramizda yo'q. O'tamurod Xalilov, Tovboy Sarmonov, Qodir Xudoyqulov, Abdumurod Normurodov, Temur O'rolov, Ismoil Safaraliyev, Rabbim va Xudoyqul Norqobilovlar, Eshmirza Qura-shev... Bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin.

Bundan bir necha yil oldin o'zim o'qigan maktabga borib, eski maktab binosini ham

kitoblar-u, oddiy daftarni qo'lga olgan biz o'quvchilarga muallimlarimiz bor mehri, qalbining tubida yashirilib yotgan eng egzu niyatlarini bag'ishlagan bo'lsa ajab emas. Men esa o'sha oddiygina qishloq maktabi – “kichik akademiya”ni hamon sog'inaman...

MEHRIBON PIRIMOVNI ESLAB ...

Narzulla muallimning farzandlari Mehribon aka va Muhiddin akalari bilan mening akalari o'quvchilik yillaridan, so'ngra talabalikda qalin do'st bo'lishgan. Mehribon aka harbiy xizmatdan qaytgach, o'rtanchi akam Davron Qarshiyev bilan bir guruhda tibbiyot institutining stomatologiya fakultetida tahsil olishadi. Keyinchalik Mehribon Pirimov Nurota tumani shifoxonasida ish-ladi, pensiyaga qadar Zarafshon shahar tibbiyot birlashmasining rahbari bo'ldi. Bir yil muqaddam esa og'ir kasallik tufayli hayotdan ko'z yumdi. Qismat ekan, akam Davron Qarshiyev ham avval tibbiyot fanlari nomzodi, keyin esa tibbiyot fanlari doktori darajasiga erishib, 42 yoshida hayotdan ko'z yumdi. O'limidan keyin professor unvoni berildi. Bugun Narzulla muallim ham, muallimning o'g'li Mehribon aka, akam Davron Qarshiyev ham oramizda yo'q. Ular haqiga faqatgina duo qila olamiz xolos...

XOKISOR OTA EDI

Narzulla muallim avvalo o'z uyida namunalni ota bo'lib, farzandlarining qaysi fandan necha baho olayotgani, har kuni nima ish bilan band bo'lganigacha erinmay surishtirgan. Musallam momo bilan ikki qiz, to'rt o'g'ilni oq yuvib oq tarashdi. To'ng'ich o'g'li Mehribon aka kuchli vrach bo'lib yetishdi. Muhiddin aka falsafa fanlari doktori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, Xayrulla aka esa harbiy shifokor bo'lib yetishdi. Kenjasi Toshbo'ri tadbirkor, ota chirog'ini yoqib o'tiribdi. Qizlar borgan joylarida unib-o'sib, umrguzaronlik qilib hayotdan o'tib ketdilar.

Albatta, bir kichik maqolaga Narzulla muallim kabi qishloq muallimlari suvrati va siyratini sig'ira olmaymiz. Shoir aytganidek, “Ular she'rga sig'maydilar...”.

O'ljaboy QARSHIYEV

O'git



Yoshligimizdan enam O'ktamxon otincha Ibrohimbek qizining o'g'itlarini tinglab katta bo'lganmiz. Ular nafaqat bolaligimizda, balki katta hayotga qadam qo'yib, mustaqil bo'lganimizda ham asqatdi. Hozir enam o'g'itlaridan qizlarimga ham aytib beryapman.

1. **O'z uyingizda o'g'ri bo'ling.** Turmush o'rtog'ingiz maosh olib ro'zg'or qilganida, 3 litrlik idishga(avvallari ko'za idish bo'lar edi) guruch, mosh, loviya, makaron, un, hattoki tuzdan ham olib, yerto'laning bir chekkasiga qo'ying. Buning ma'nosi, maoshgacha har xil holat bo'ladi. Ochiq eshik bo'lganidan keyin mehmonlar kelib qolishi mumkin. Ana o'shanda siz “o'g'ir-lagan” mahsulotlar kuningizga yaraydi. Erkaklar ko'chaning odami va ba'zida cho'n-tagi yelvizak(aqchasi qolmagan) bo'ladi.

2. **O'tangiz o'tirgan to'mning ustiga chiqmang.** Farzandlar ota-onaning yuziga tik boqmasligi kerak. Ota-ona va yoshi ulug'lardan doim duo olish shart. Duosiz o'stona hatlamang.

3. **Farosatli bo'ling.** Ayrim kelinlarning farosati ko'p narsaga yetmaydi. Qaynota-ke-lin o'rtasida parda bo'lishi kerak. Ya'ni huda-behuda so'zlarni ular yonida gapirib bo'lmaydi. Qaynota o'tirganida oldidan o'tib bo'lmaydi. Xonadonda torchilik bo'lsa, qaynotadan uzr so'rab, so'ng harakat qilinadi. Ayrim kibrifatli kelinlar qaynota bilan yillab gaplashmaydi.

4. **Ayrim nisolar(ayollar) eriga boshqacha, ota-onaga boshqacha, qaynona-qaynotaga boshqacha muomala, qayinsingil, qayinukalarga yana boshqacha muomala qiladi.** Bunday buqalamunlik Oллоh tomonidan jazolanadi. Uning qahridan qo'rqing-ki, bemaza qililaringiz farzandlaringizga uradi, afsus.

5. **Qaynona-qaynota, ayniqsa, mehmon oldida aslo farzandingizga qattiq gapirmang!** Ayrim onalar farzandlarini huda-behuda qurushadi. Bu ayolning tarbiyasi mukammal emasligidan dalolat beradi. Bolani tarbiyalashning go'zal yo'llaridan biri sokinlik va xushmuomalalik, go'zal muloqot, bola tilida so'zlashishdir.

6. **Qudachilik – ming yilchilik.** Qudalar o'rtasini buzadiganlar – qizlar, kelinlardir. Qiz ota hovliga borganida soqov bo'lishi, qaynota xonadonidan gap-so'z, har xil voqealarni ota hovliga olib bormasligi kerak. Onalar ham qizini so'roqqa tutib, hayot tarzini ipidan ignasigacha so'ramasin, so'rash uyat.

O'zbekchilikda ota yo'lli, ona yo'lli masalasi bor. Bu masalani yoshi ulug'lar hayotligi paytidayoq farzandlarining qulog'iga quyadi. Ya'ni oilaning to'ng'ich farzandi ota yo'lli, undan keyingi farzand ona yo'lli bo'ladi yoki aksincha. Bunday farzandlar ota-onasi vafotidan so'ng ota-onalaridan o'rgangan hayotiy tajribalari asosida turli masalalarni yechishda jigarlariga(o'ta-onalaridan qolgan yodgorliklari) maslakdosh bo'ladi.

Hayotiy misol, nabiralarimdan biri Orifaxon qaynonasi yo'q xonadonga kelin bo'lib, uch nafar qayinukasining boshini ikkita qildi, uch nafar qayinsingilini turmushga uzatdi. Qaynotaning issiq-sovug'i, baland-pastini joyiga qo'yidiki, mahalla, qarindosh-urug'lar hurmatiga sazovor bo'ldi. Natijada Orifaxon nabiraning yetti nafar farzandi ham oliy ma'lumotli bo'lib, ota-onasiga rahmatlar yog'diradigan insonlar bo'ldi.

Ibratli rivoyat

Bu rivoyatni bir paytlar bobom rahmatlidan eshitgandim. Voqea ayollarga dars be-

radigan madrasada bo'lib o'tgan. Kunlardan bir kuni ustoz o'quvchi ayollarga:

– Sizlar bilan savol-javob tariqasi-da aqlni sinovchi o'yin o'ynamoqchiman. Orangizda kim birinchi bo'lib qatnashmoqchi bo'lsa, iltimos, doskaga chiqsin! – deya ular bilimni sinamoqchi bo'ldi.

Bir payt o'quvchilardan biri o'z xohishi bilan doskaga chiqdi. Ustoz doskaga chiqqan o'quvchi ayolga:

– Senga yaqin bo'lgan yigirmata insonning kimligini doskaga yoz! – dedi.

Shunda ayol birma-bir ismlarni doskaga yoza boshladi: otam, onam, turmush o'rtog'im, bolalarim, aka-ukalarim, opa-singillarim, tog'am, ammam, xolam, qo'ni-qo'shnilar..., xullas yigirmata yaqinini misol qilib yozdi.

– Yigirmataning ichidan ikki kishini o'chir! – dedi ustoz.

Shunda ayol ikki kishini ro'yxatdan o'chirdi. Ustoz:

– Endi qolganlar ichidan yana to'rt kishini o'chir! – dedi.

Doskada faqat to'rt oila a'zolarini qoldirdi: ota, ona, turmush o'rtog' va farzandlar... Butun sinf jim bo'lib, bu hech qanday o'yin emasligini anglashdi. Ustoz:

– Yana ikki kishini ro'yxatdan o'chir! – deya buyruq berdi.

Ayol qaysi birini o'chirishga ikkilanib qoldi. Ko'zyoshlari bilan ota-onani ro'yxatdan o'chirdi. O'chirdi-yu o'ksib yig'lab yubordi. Buni kuzatib turgan boshqa ayollar ham xayolidan nimalarnidir o'tkazganicha ustozning keyingi savolini kutib turishdi. Doskada esa turmush o'rtog' va farzand yozilgan edi, xolos. Shunda ustoz:

– Qani, yana bir kishini ro'yxatdan o'chir! – dedi.

Ayol yanada qattiq yig'lay boshladi. Ustoz esa bu holga parvo qilmasdan:

– Senga yana bir kishini o'chir dedim! – deya gapini takrorladi.

Ayol doskaga yaqinlashib ming bir o'ksik yig'i bilan farzandlarini ro'yxatdan o'chirdi. Doskada esa faqat turmush o'rtog'ining ismi qoldi. Keyin ustoz:

– Qani, ayt-chi, ota-onang seni dunyoga keltirdi, ne azob bilan katta qildi, lekin sen ularning ismlarini o'chirding. Va oxirida aziz farzandingning ismini ham o'chirding. Oxir-oqibat turmush o'rtog'ingni tanladig. Buni qanday izohlaysan? – deya so'radi.

Ayol esa ko'zyoshlarini ro'moliga artib, shunday javob berdi:

– Ota-ona – Oллоhning taqdiri, ular kuni kelib vafot etadi. Farzandlar esa katta bo'lgach uylandi, turmushga chiqadi va oyoqqa turgach turli bahonalarga bilan mendan uzoqlashadi. Men bilan bir umr birga qoladigan inson – turmush o'rtog'im...

Bunday javobni hech kim kutmagandi.

O'sha muallima singlimizning javobi barcha ayollarimizga dars bo'lsin. Chunki hozirgi kunda ko'pchilik ayollarimiz oddiy bir kiyim-kechak, tilga taqinchoq deb janjal chiqarib, eridan voz kechib ajralib ketaypti. Bugun qizlari nimani xohlasa olib berayotgan ota-onalarning bo'lajak ku-yovlari qizlarining inijliklarini ko'taradimi? Yangi oilasida ota-ona uyini qidiradigan qizlar qiyinchilikka uchramaydimi?

Qumrixon SULTONOVA,
filologiya fanlari nomzodi

Yangi kun

NAVRO‘Z – farishtalar ulug‘lagan kun

Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish joizki, bu bayram dono xalqimiz tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya‘ni quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq. Bu esa yilboshi qachon kelishidan qat‘i nazar, Navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Bundan tashqari, Navro‘zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda – ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi.

Olimlarning ta‘kidlashicha, nomi forschadan kelgan, qadim zardushtiylar davriga borib taqaladigan – Navro‘z faqat turkiylarda emas, balki bugungi Pokiston, Afg‘oniston, Eronda ham nishonlangan va hozir ham nishonlab kelinadi. Ko‘klam boshlanishidan darak beruvchi bu kun dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ulangan turkiy xalqlar tomonidan turlicha nishonlanadi.

Qadim-qadimdan Navro‘z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O‘sha kunlari hatto urush-janjallar ham to‘xtagan, gina-kuduratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o‘tishgan. Bu haqda Lutfiyning “Gul va Navro‘z” dostonida shunday satrlar bor:

*Ulusga mustahiq-larni qilib shod,
Hamul dam bandilarni qildi ozod.*

Xalq afsonalarida “zardushtiylik aqidasi”ga ko‘ra, yaxshilik xudosi Ahuramazda (Hurmuz) – bahor-yozda, yomonlik xudosi Anxara-Maynyu (Ahriman) – kuz va qishda hukmdorlik qilar emish. Bahorning birinchi kuni yaxshilik xudosi yomonlik xudosi ustidan g‘olib chiqqan muqaddas sana hisoblanib bayram qilingan. Bu aynan biz nishonlayotgan Navro‘z kuniga to‘g‘ri keladi. Boshqa afsonalarga qaraganda, Odam Ato va Momo Havo uchrashgan kun – Navro‘z deb tan olingan emish. Firdavsiyning “Shohnoma”sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb-hunar o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, “ishlari gurkirab berganda meva” text yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan.

Alisher Navoiy “Tarixi muluki ajam” asarida ham Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon etadi. Navoiy yozishicha: “Jamshid “Chihil minor” nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib... “bu imorat tugandi, olam salotin va ashrof va akobirin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtchim, quyosh nuqtan e‘tidoli rabig‘a tahvil qilib erdi, ul binoda text ustiga o‘lturub, adolat siyt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunning otin Navro‘z qo‘ydi”.

Navro‘z musulmon xalqlarining taqvimida mustahkam o‘rin olgan eng sara bayramlardan biridir. U inson va tabi-

XI asrda yashab ijod etgan shoir va faylasuf Yusuf Xos Hojib jahon adabiyotining eng go‘zal namunalaridan bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” asarida bahor va Navro‘z haqida shunday yozgan edi:

*Quyosh qaytdi yana kelib o‘rniga,
Baliq quyrug‘idan qo‘zi burniga.*

Ya‘ni, quyosh kecha va kunduzning tenglik nuqtasi – olam ekvatoriga qaytib, o‘rniga keldi va Baliq (Hut) burjidan Qo‘zi (Hamal) yulduzlar turkumiga o‘tdi. Hazrat Mir Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” asarida qadimiy va navqiron ayyom haqida shunday deb yozgan edi:

*Vasli aro ko‘rdum,
teng emish bo‘yi-yu sochi,
Tun-kun teng ekan zohir
o‘lur bo‘ldi chu navro‘z.*

Xalqimizda “Hamal kirdi – amal kirdi” maqolining tarixiy asoslarida uzoq yillik ajdodlarimizning o‘luvchi va tiriluvchi tabiat haqidagi tasavvurlari yotadi. Bino-barin, o‘t-o‘lan, dov-daraxtlarning amalga kirishi tabiatdagina emas, balki jamiyatda ham jonlanishni boshlab bergan. Ana shu poklanish, yangilanish, go‘zallik, to‘kin-sochinlik ramzi – qadimiy milliy bayramimiz yozma manbalarda ham o‘z ifodasini topgan.

Shukrona

Orzular ro‘yobi so‘ralgan tilaklar

Qishning izg‘irin shamollari o‘rnini asta-sekinlik bilan bahorning mayin shab-bodasi egallay boshladi. Atrofga ajib bir iliqlik, ko‘ngillarga esa ko‘klam shukuhi jilvalanib, tarala boshladi. Qish sovug‘idan charchagan chehralarda esa nimtabasum – Bahor keldi!!!

Dala-dashtda tirik jon qo‘zg‘ala boshladi. Bobodehqon ketmonini yerga urarkan, “ishqilib, yil yaxshi kelsin. Hosil mo‘l bo‘lsin”, deya samoga boqadi. Osmonda charx urayotgan qushlar esa uning ezgu tilaklariga “Ilohim!” deya yotgandek “chug‘ur-chug‘ur” qila boshlaydi.

Shunday farahbaxsh kunlarning birida momom barcha nabiralarni huzuriga chorladi.

– Mening Xudo berganlarim, bug‘doyimiz tayyor bo‘ldi, sumalakni boshlaymiz! Kattalar tayyorgarlikni boshladik! Bolajonlar, sizlar tosh terib kelinglar, – dedi shoshilib.

Biz ko‘cha darvoza tomon yugurar ekanmiz, yana ortimizdan baqirgancha:

– Har bir toshni ehtiyotlab, o‘z orzularing ro‘yobini tilab teringlar! Unutmanglar, sumalak ilohiy taom. Aytilgan tilaklar, albatta, ro‘yobga chiqadi, – dedi ishonch bilan.

Biz chopqillab tosh terishga tusha ketdik. Kimdir “Menga yangi velosiped sovg‘a qilishsin” desa, yana kimdir “Men chiroyli ko‘ylak olay” dedi. Men esa juda ko‘p tilaklar tiladim...

“Buvim yuzga kirsinar, o‘sha payti men olim bo‘lay! Buvilar uchun o‘zi yuradigan mashina yaratay. Mashina buvimni xohlagan joyiga olib borsin. Bolalar uchun aql-li ruchka yaratay, toki bu ruchkada bolalar faqat “5” baho olishsin. Dadam uchun o‘zi yer chopadigan ketmon, onam uchun uy ishlarini qiladigan robot yaratay, toki onam charchamasin... Iye, to‘xta, buncha tilakni amalga oshirish uchun a‘lo baholarga o‘qish kerak-ku? Demak, tilaklar ro‘yobi uchun o‘qish, izlanish va mehnat kerak ekan-da?” shu xayollar bilan bir hovuch tosh terib qo‘yibman.

Ko‘cha etagidan onamning ovozi eshitildi.

– Bolalar-u, kelaqolinglar-u... Bo‘laqolinglar! Toshlarini yuvib, orzungizni sumalakka yetkazish kerak.

Biz chopqillab, kimo‘zarga yugurib, hovliga kirib keldik. Hamma bolalarda osmon-osmon orzular! Orzular ro‘yobi so‘ralgan tilaklar! Biz uchun mo‘jizaga aylangan sumalak doshqozonda “Eh, bu yurtning istiqbollari! Sizlar bor ekansiz, orzular bisyor. Orzular borki, maqsad mushtarak! Maqsadlari buyuk elning nomi abadiydir!” deyayotgandek vaqir-vaqir qaynamoqda edi...

Xursanoy ERGASHEVA,
To‘raqo‘rg‘on tumanidagi
53-maktabning boshlang‘ich sinf
o‘qituvchisi

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Navro‘zni bayram qilish ahamoniylar davridan boshlangan. Lekin uning o‘lkamiz hududida nishonlana boshlaganiga to‘rt ming yil bo‘lgan. Navro‘z bayrami haqidagi yozma ma‘lumotlar Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Umar Xayyomning “Navro‘znoma” asarlarida uchraydi. Asrlar bo‘yi bu bayram xalqning turmush tarziga singib, sayqal topib, takrorlanmas milliy qadriyatga aylandi. U elimizning niyat va maqsadlarini o‘zida aks ettirgan go‘zallik va nafosat ayyomidir.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, quyosh ayni 22-mart kunidan boshlab tik yo‘nalgan hayotbaxsh nurlari bilan shimoliy tropik chizig‘i tomon harakatlana-di va bahorgi kecha-kunduz tenglashadi. Bu Navro‘zning ilk va qutlug‘ qadami bo‘lib, tabiatning jonlanishi bilan kishilarning xo‘jalik faoliyati o‘rtasida uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Jumladan, bobodehqon ona yerga mehr, ishlov berishga kirishadi, tabiat uyg‘onadi, o‘t-o‘lanlar qir-adirlarni yashil libosga bo‘yaydi. Azaldan chinakam xalqona tantana sifatida bayram qilib kelingan Navro‘z asl qiyofasiga qaytdi.

Qadimda ota-bobolarimiz Navro‘z bayramiga bir necha kun avvaldan tayyorgarlik boshlashgan va bu salkam bir oy davom etgan. Bug‘doy undirishga qo‘yilgan va uning maysasidan sumalak tayyorlangan. Onalarimiz ko‘k chuchvara, yalpiz somsa, go‘ja, yetti xil don-dunlardan mazali taomlar tayyorlaganlar. Er yigitlar o‘z kuch va jasoratini ko‘rsatib, otchopar, ko‘pkari, kurash kabi milliy musobaqalar hamda qo‘chqor, xo‘roz urushtirish kabi xalq o‘yinlarini o‘tkazishgan.

Yigit-qizlar tomonidan bahor elchilari-dan bo‘lgan binafsha, lola, chuchmomalar, shuningdek, sumalak haqida laparlar, sho‘x-shodon qo‘shiq-lar kuylanib, raqslar namoyish etilgan. Navro‘zning birinchi kuni qishloq joylarda bolalar to‘p-to‘p bo‘lib xonadonlar eshigi oldida bayramni tarannum etuvchi ashulalar aytishgan. Xonadon egalari esa ularni turli sovg‘a-salom va yeguliklar: yong‘oq, turshak, qurut, mayiz, holva kabi turli shirinliklar bilan siylagan. Bolalar yeguliklarning bir qismini qishloqdagi beva-bechoralar, yetim-yesirlarga ulashganlar, qolganini birgalikda baham ko‘rganlar.

Navro‘z kirishidan bir-ikki kun avval xonadonlar va ko‘chalar tozalangan, hashar qilingan, oilalarda “qozonto‘ldi” marosimlari o‘tkazilgan. Unda oila bekalar barcha oshxona idishlarini ovqatlar bilan, hech bo‘lmasa suv bila to‘ldirib qo‘yganlar. Ayni shu kuni yoshi ulug‘ onaxonlarimiz boshchiligid a doshqozonlarda sumalak pishirilgan.

Navro‘z BMT tomonidan xalqaro bayram sifatida e‘tirof etilgan. Prezidentimizning “Navro‘zi olam hozirgi kunda barcha el-u elatlarni, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarini yanada jipslashtirmoqda”, degan so‘zi ham bu bayramning xalqlar tarixida katta o‘rin tutishini anglatadi.

Nasiba TURSUNOVA,
Navoiy davlat universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti”
kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Bong!

MA'NAVIYATLI BO'LA OLAMIZMI?



2018-yil 14-avgustda “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida” Prezident qarori qabul qilindi. 2021-yil 19-yanvar kuni esa “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari” bo’yicha videoselektor yig’ilishi o’tkazildi va unda: “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”, degan fikr ilgari surildi.

2023-yilning 22-dekabrida esa Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida Prezident so’zlagan nutq OAVlarda “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” nomi bilan e’lon qilindi. Zero, ma’naviyat insonda shakllantirilishi lozim bo’lgan barcha ijobiy xislatlar va insonga xos eng yaxshi fazilatlar yig’indisidir.

Bu fazilatlar – o’zlikni anglash, odob, burch, mas’uliyat, uyat, ibo, hayo, halollik, ezgulik, adolat, vijdon, vijdon azobi, vatanparvarlik, fidoiylik, milliy g’urur, mehr-muruvvat, to’g’riso’zlik, or-nomus, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat, do’stlikka sadoqat, vafodorlik kabi sifatlarni o’z ichiga oladi.

Inson ma’naviyati bilan hayvondan, jamiyat esa tabiatdan farq qiladi. Insoniyatga xos fazilatlar jamiyatda tarixan shakllanib, bora-bora qadriyat darajasiga ko’tariladi. Bu qadriyatlarni o’zlashtirish natijasida insoniy fazilatlar qaror topadi. Birgina o’zlikni anglash tuyg’usini olaylik. O’zlikni anglash – bu insonning jamiyatdagi o’rnini, o’z xalqining etnogenezinini, tarixini yaxshi bilishi, o’z millati va milliy qadriyatlari bilan faxrlana olishi demakdir.

Shu tariqa ma’naviyat inson bilan jamiyat, inson bilan inson o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solib tura-di. Ma’naviyat orqali inson jamiyat bilan uyg’unlashadi, tabiatning gultojiga aylanadi. Bir so’z bilan aytganda, ma’naviyat millatning aqliy va ruhiy darajasi, qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Buni shunday tushunmoq kerakki, bugun ma’naviyat butun jamiyatimizni birlashtiruvchi, xalqimizni ulug’ maqsad – mamlakatimizni ilg’or davlatlar qatoriga ko’tarish va Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishga qaratilgan ulug’vor sa’y-harakatlarimizni maqsad sari yo’naltiruvchi kuchga, jamiyat va davlat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga va oldimizda turgan ulug’vor bunyodkorlik ishlarimizda asosiy tayanchimizga aylanishi lozim.

Masalaning o’ta dolzarbligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, Sh. Mirziyoyev o’sha yig’ilishda yana shunday degan edi: “O’zimizga bir savol berib ko’raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g’oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlod tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob bermoqdami? Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o’tkir va ko’ndalang bo’lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o’ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug’ dunyoda “o’zbek”, “O’zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo’lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo’yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo’ladi”.

Afsuski, bugungi kunda ma’naviyat tanqisligi yuz bermoqda. Hatto yaxshi niyat bilan viloyatlarda “Ma’naviyat sektori” faoliyati yo’lga qo’yildi. Tajriba maydoni sifatida Surxondaryo viloyati tanlandi. Biroq bu tadbir ham kutilgan samarani bermadi.

Nega qariyb 30 yildan beri “ma’naviyat, ma’naviyat” deymiz-u, lekin natija kutilganday emas? Buning asosiy sababi – bizda aytilayotgan so’z bilan qilinayotgan ishlarning bir-biriga mos kelmayotganidir (Masalan, 34 yildan beri maktab o’qituvchisi nufuzi haqida gapiriladi, lekin u hamon jamiyatda o’z o’rnini topa olganicha yo’q. Oliy toifali o’qituvchining 1 stavka darsi uchun oylik maoshi endi atigi 5 million so’mdan oshirildi.

Yaxshi niyatlar bilan qishloq xo’jaligi klasterlari (paxta va g’allachilikda) tashkil etilgan edi. Biroq bu klasterlar fermerning og’irini yengil qilmadi, aksincha, ba’zan 2-3 yillab fermerlar sotgan paxtasi yoki g’allasining pulini bermay, uni “tuya qilib” yubordi. Yoki paxta rejasini bajarish bilan bog’liq qing’ir ishlar kamayish

o’rniga yanada kuchayayotgani sir emas. Bu holatlarni butun qishloq ahli ko’rib turibdi).

Ikkinchidan, ma’naviyat masalasida hozircha biror holatni izohlash, OAVlarda 4–5 nafar olim va ziyolining Prezident chiqishlari mazmun-mohiyatini sharhlashdan nariga o’tilmayapti.

Bir vaqtlar Respublikamizda “Bilim” jamiyati faoliyat ko’rsatardi. Jamiyatning lektorlar korpusi oliy o’quv yurtlarining eng yetuk olimlaridan shakllantirilgan bo’lib, ular vaqti-vaqti bilan mehnat jamoalariga borib davlatning ichki va tashqi siyosati haqida, jamiyat hayotiga oid dolzarb muammolar xususida ma’ruzalar o’qishardi. Uchrashuv juda qiziqarli savol-javoblarga boy bo’lardi. Nahotki ana shu an’anani bugun tiklash mumkin emas?

Uchinchi sababi – joylarda bu sohaning salohiyatli, malakali kadrlar bilan yetarli ta’minlanmaganidir. Mayli, ular ma’lum miqdorda mablag’ talab qilar, lekin bir so’m ham sarflamasdan ma’naviyatimizga tahdid solayotgan ichki xatarlarni bartaraf etish mumkin emasmi? Mumkin. Birinchi navbatda, ma’naviyatimizga xavf solayotgan ichki xatar bartaraf etilmas ekan, hech qanday amaliy natijaga erishib bo’lmaydi. Xo’sh, bu xatar, bu tahdidning markazi qayer? Bu, afsuski, birinchi navbatda O’zbekiston televideniyesidir.

Ma’naviyat bo’yicha qilinayotgan shuncha sa’y-harakatlar, Prezident chiqishlari xususiy telekanallarga zarracha ta’sir ko’rsatgani yo’q. Ularning buzg’unchiligi ijtimoiy tarmoqlardagidan ham xatarli. Chunki televizorni deyarli hamma tomosha qiladi.

Binobarin, ma’naviyat sohasidagi faoliyatimizni televideniye ko’rsatuvlarini tartibga solishdan boshlash lozim. Sababi, qator telekanallar ma’naviyatimizga ichidan zarba beruvchi – “ommaviy madaniyat” targ’ibotining vositasiga aylanib qoldi.

E’tibor bering, ularda bugun nimalar namoyish etilmayotir, deysiz. Hali qarasangiz qaynota keliniga, hali qarasangiz qayinuka kelinoyisiga ko’z olaytirmoqda. Hali qarasangiz erdan chiqqan ayol davolanishga muhtoj boshqa bir erkakka uyqu dori berib kimningdir hovlisiga olib ketmoqda. Tunni o’sha “tutqun” bilan o’tkazgan aktrisa yigitga: “Kechasi menga juda zo’r huzur-halovat berdingiz. Sizga ham huzur-halovat in’om etish uchun bor ayollik mahoratimni ishga soldim. Xursandmisiz?”, deyishdan tortinmaydi. To’g’risi, pul uchun o’zini har ko’yga solgan aktrisaning eri, qaynona-qaynotasi, farzandlari bu epizodni qanday tomosha qildi ekan, deb o’ylanib qoladi kishi. Serial mualliflari mazkur buzuqlikdan iborat filmga uyatni yig’ishtirib qo’yib “Nomus” deb nom qo’ygani kishini nafratlantiradi, xolos.

Nahotki, O’zbekiston teleradiokompaniyasi rahbariyatini va Madaniyat vazirligini bunday buzuqliklarning targ’ib etilishi tashvishga solmasa? Solmaydi, chunki ular uchun televideniye pul ishlab topish muammosi birinchi o’rinda turadi.

Achinarlisi yana shundaki, mashhur san’atkorlardan biri O’zbekiston televideniyesi orqali “Men baxtimni ikkinchi erimdan topdim”, deb jar solsa, ikkinchisi esa “turk yigitlari o’zbek yigitlariga qaraganda jozibaliroq va shiddatliroq bo’lar ekan”, desa, uchinchisi “Men uch marta erga tegdim, lekin har uchalasida ham kelinlik libosini kiydim”, deb ko’kragiga urib maqtansa – bunga kulish kerakmi yoki yig’lash? Axir san’atkor ayni paytda tarbiyachi ham emasmi?

Ikkinchidan, har narsani o’z nomi bilan aytadigan bo’lsak (afsuski, bizda ko’pincha har bir narsa o’z nomi bilan aytilmaydi), bizda ham aslida kapitalizm qurilmoqda. Bu – pullari bor, pul topadigan kishilar alohida o’ringa ega bo’ladigan jamiyatdir. Bizda kapitalizm “iqti-

sodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat” deb ta’riflanmoqda, jamiyatning mulkdorlar qatlami esa kapitalistlar deb emas, sarmoyadorlar, tadbirkorlar va ish-bilarmonlar deb atalmoqda. To’g’ri, bugungi kapitalizm u shakllangan XVI–XVIII asrlardagi vahshiy kapitalizm emas. U aholining muhtoj qatlami davlat himoyasiga olingan, ijtimoiy davlat tamoyillari amal qiladigan kapitalizmdir. Lekin kapitalizm qanday nom bilan atalmasin, baribir kapitalizmdir. Bu jamiyat yashashining manbayi asosida pul yotadi. Demak, bunday jamiyatda pul topish muammosi birinchi o’ringa chiqadi. Shuning uchun ham o’zbek so’mi qolib, AQSH dollari bizni o’z domiga to-bora ko’proq tortib bormoqda. Shunday ekan, biz istaymizmi, yo’qmi, pul bor joyda ma’naviyat chekinadi. Odamlarni ma’naviyatli bo’lish emas, nima qilsayam pul topish qiziqтира boshlaydi. Buni odam savdosi, firibgarlik kabi jinoiy harakatlarning tobora avj olayotgani ham tasdiqlab turibdi. Eng achinarlisi shundaki, bu kabi jinoyatlar hatto ayollar tomonidan ham sodir etilmoqda.

Davlat ishonib turli lavozimlarga tayinlagan O’zbekistonning qator katta-kichik rahbarlarining davlat mulkini talon-toroj qilishlari, firibgarliklari 2023-yilda davlat xazinasiga 879 mlrd so’m ziyon yetkazgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2024-yilning atigi olti oyi ichida 1 trilion 466 mlrd so’mni tashkil etgan (“Milliy tiklanish” gazetasi, 30-son, 14.08.2024). Bu ularda milliy g’urur sustligining natijasi emasmi? Ular uchun vatanparvarlik va ma’naviyat tushunchalari begona.

Bu hodisa maktabgacha va maktab ta’limi muassalarini mablag’ yetishmaydi, degan bahonani ro’kach qilib sifatli ko’mir bilan ta’minlash mumkin bo’lmayotgan bir sharoitda ro’y bermoqda. 2025-yilda bog’cha va maktablarga tarqatilgan ko’mirning 1 tonnasiga 431 400 so’m to’langan. Nahotki, ta’lim muassasalarini tonnasi 800 000 – 1 000 000 so’mlik ko’mir bilan ta’minlashning iloji bo’lmasa? Axir hamma toifadagi rahbarlarimiz bolalar bizning kelajagimiz deb o’zlarini bolajon hisoblaydilar-ku. Sovuqda sinfxonasida paltosini yechmasdan o’tirgan o’quvchining ongiga, qalbiga ma’naviyat haqidagi so’zlar ta’sir etadimi?

To’g’ri, insoniyat, shu jumladan biz ham bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatdan voz kecha olmaymiz. Bunday iqtisodiyotdan voz kechish oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga uchratishini 1917–1991-yillar oralig’idagi 74 yillik tariximiz isbotladi. Biroq iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatni(ya’ni, kapitalizmni) insonparvarlik tamoyillariga amal qiladigan jamiyatga aylantirish shart. Yuksak iqtisodiy taraqqiyotsiz insonparvar davlatni ham yaratib bo’lmaydi. Axir inson uchun zarur birlamchi hayotiy ehtiyojlar(uy-joy, suv, gaz, elektr, yo’l, maktab, bog’cha, shifoxona va h.k.)ni qondirish iqtisodiy taraqqiyotga bog’liq ekani kunday ravshan. Yuqori darajada taraqqiy etgan iqtisodiyotsiz 2030-yilga borib O’zbekiston aholisining turmush darajasi dunyodagi o’rtacha darajadan yuqoriroq bo’lishiga erisha olmaymiz.

Uchinchidan, ma’lumki, joylarda hokimlar Ma’naviyat va ma’rifat kengashlari raislari ham hisoblanadi. Prezidentimiz “Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko’tarishda hokimlarning mas’uliyati katta ekanini va ularning faoliyatiga ushbu yo’nalishtda amalga oshirilayotgan ishlarning sifati va samaradorligiga qarab baho berishi”ni alohida ta’kidlagan edi.

Xo’sh, barcha hokimlarimizning ham bugungi ma’naviy va ma’rifiy saviyasi ularga yuklatilgan vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishiga imkon beradimi? Ular ma’naviyat va u bilan bog’liq tushunchalarning mazmun-mohiyatini qanchalik bilishadi va unga amal qilishadi? Hamma gap ana shunda. O’zini hurmat qiladigan har bir hokimning ish stolida “Yangi O’zbekiston”, “Ma’rifat”, “Jadid” gazetalari, “Ma’naviy hayot”, “Tafakkur” va “Vatan” jurnallari turishi shart.

Usmon JO’RAYEV,
O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan
xalq ta’limi xodimi,
Bo’ka tumanidagi
8-maktab o’qituvchisi

Talqin



XX asr boshlarida zamondosh shoirlar ijodini o'rganib, she'rlarini tahrir qilib nashr etgan dastlabki tadqiqotchi Ibrohim Davron ("Ash'ori nisvon") ("Ayollar she'riyati"). Toshkent, 1914. Arab yozuvida) haqida ilmiy maqola e'lon qilganimda, keyinchalik bu yo'nalishni davom ettiraman, deb o'ylamaganman. O'shanda bunga rozi bo'lmasdim ham. Ammo yoshlikdagi romantik davrlar o'tib, har bir ayol qalbida tog'dek iztiroblar yashashini ilg'ab, bularni kashf etishni istab qolarkansan.

Ziyoli ayollarimizning tafakkur tarzi, tasavvur imkoniyatlari kengligi, fikr-u hissiyotlarining g'arb ayollariga xoslikka intilishini ko'rib zavqim keladi. Buni bir voqea mohiyatida qisman anglatam. Gap shundaki, bir tanish shoira do'stimizga shu yerda ilm bilan mashg'ul bo'lib, vaqtincha ishlab yurgan afg'onistonlik olim aytibdiki, "Bilishimcha, yaxshi shoirasiz, siz haqingizda bir narsa yozarman, kitobingizni bersangiz". Mumtoz adabiyotshunoslik bilan shug'ullangan alloma kitobni o'qib chiqqach, ancha vaqt o'tib uni qaytaribdi va debdiki: "Sizlarning she'rlaringiz qandaydir g'arbcha uslubdmi yoki xayollaringiz g'arbonami, o'qib mani aqlim yetmadi". Rostdan ham bizga nafaqat sharqona Kumushning, balki g'arb adabiyotidagi Anna Karenina, Bovari xonim, notanish ayolning(maktublaridagi) iztiroblari, cheksiz xayoliy ishq-muhabbat o'ta tanish o'zimiznikidek.

Ziyoli ayollarimiz, adibalarimiz an'anaviy xislatlariga ko'ra ayollik, bekalik, onalikdan ortib to'lib-toshib ijod qilishni ham joyiga qo'yadi. Ammo yolg'iz boshiga tirikchilik g'ami tushib qolsa-chi? Qahramonimiz ham uch farzandi voyaga yetganda yoridan ayrilib yolg'iz o'zi ularni katta hayotga yo'llagan va farzand-u nevaralar tashvishi bilan ijod yo'lida charx urayotgan Ayoldir.

Saodat Donaboyeva she'riyatga yonib kirib kelgan. She'rlari hali o'quvchilik yillariyoq Payariq tuman gazetasida bosilgan. Ilk she'rlariga ustози Abdumurod aka Ismatov oq yo'l tilagan. 80-yillarda Toshkentda o'tkazilgan yoshlar she'riyati seminarida g'oliblikni qo'lga kiritgan. Hamroqul Asqar, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva

kabi darg'alar Saodatning she'rlarini e'tirof etishgan. O'sha paytdagi qadriyatlar nuqtayi nazaridan olinganda, u chog'lar hozirdagidek quyuq rangli, tashbehlarga boy she'riyat o'rnida xalqona, oddiy, samimiy, mag'zдор she'rlar davri edi. Mana shuning uchun ham ravon, soddadil she'rlari ijtimoiy tarmoqlarda sevib o'qiladi, muxlislari havas qilar darajada ko'p.

Masalan, mazkur she'r haqida Saodatning kitobi muhokamasiga kelgan Halima Xudoyberdiyeva "Shu gapni aytish uchun romanlar yozilgan, Saodat to'rt qator she'rga sig'diribdi", degan ekan:

*Barg qatida titragan shabnam
Kabi ko'zda sezilsa gar nam.
Yig'ladingmi deya so'ramang,
Sevgan edim sevilmasam ham.*

Nazarimda, tan olib aytishning o'zi Anna Axmatova("Biz sevib, bizni sevmagan yigitlar") she'rlariga xos.

Quyidagi she'rning sarlavhasi Abdulla Oripov tomonidan sovg'a. Unda hayotdagi kontrast hodisa oddiy bo'yoqlarda berilgan:

Qiyos

*Beva yig'lar to'kadi ko'zyosh...
Armonlarga to'liqdir go'yo.*

*Go'dak kular bilmaydi alam,
Ko'zyoshlarga qilmaydi parvo.
Shodliklardan yargalgan olam
Shodliklarga to'liqdir go'yo.*

Aslida Payariqning keng qir-adirlarida, to'ylarida ko'pkari o'ynaladigan chavandozlar makonida voyaga yetgan Saodatda bunday sof tuyg'ular mo'l bo'lgan. Quyidagi satrlar vatan haqidagi nom qo'yilmagan she'ridan:

*Onamning bag'riday keng dalalaring,
Otam o'ylariday uzun yo'llaring.
Quyosh yotog'idan chiqqan damlari
Go'yo peshonamni silar qo'llaring.*

Shoirlarning

"Shoirlar qishloqda tug'ilib, Parijda vafot etadi" degan hikmat bejiz emas. Biror asarni o'qisam, uning orqasiga qarayman. Asar ortidagi odam qanchalar rost gapirayapti, yozganlarida tug'ilgan yurtining sasi sezilyaptimi, tasavvuriga to'g'rilik eshmi, xayolotining kengligi ne qadar, qaysi oliy dargohning ta'limini o'zlashtirgan, maslagini naqadar ifodalaydi va hokazo.

Menga Saodat opam aynan qo'li bilan ushlab ko'rgan tasavvurlarini uzatadi. Vatan haqida so'z desa, bir paytlar Dashti Qipchoqni tun-u kun otda kezgan chavandoz yo'llarini, dalalarni ko'rasiz, til haqida yozsa, o'sha ming yillik otliqqa dunyoni anglatgan shoh merosga, eng birinchi ustozga yuzma-yuz kelasiz.

*Onam allasi-la qonga quyilgan,
Otam sabotiday qudratli doim...
Ulug'ajdodlardan qolgan shoh meros(!)
Dunyoni anglatgan dono muallim.
Sirli olamlarga boshlagan meni
Birinchi ustozim sen – ona tilim.*

Shoirlarning yurtini bilmoqchi bo'lsangiz, kechinmalarini ifodalagan yoddan o'chmas obrazlarga boqing:

*Kapalak uchadi kapalak,
Orzumga o'xshaydi qanoti.
Nogahon sukutni titratib,
Kishnaydi qo'shnimning oq oti.*

Shoira qishlog'idagi to'ylarda o'tkaziladigan o'zbekning ko'pkarisi haqida she'rlarida eslab o'tadi. "Poygada", "(Akam xotirasiga)" kabi she'rlarida siz qadim turkiylardan qolgan bu azart o'yinning zavqini tuyasiz, chavandoz otining kishnaganini, otda uchib ketayotgan otliqning abjirligini ko'rasiz – (bular vatanni sevis bo'lmay nima, axir?).

(Akam xotirasiga)

*Yana bahor keldi qishlog'imizga,
Yana to'y boshlandi, yana tantana.
Qirlar o'ngirida, tog'lar bag'rida,
Ko'pkari chopishlar boshlandi yana...*

"Ammo, akajon, bu bahor sen yo'qsan-ku, yo'qsan" degan qayg'uli alamlarni, otning, yuganining armonini quyidagicha aytib she'rni tugallaydi:

*Ayvonda osig'liq sen sevgan yugan,
Otingning kishnog'i olamni tutar.*

Saodat opam bir suhbatda shunday hikoya qiladi: "Bu she'rni rahmatli otamning biz uchun doimo barhayot va yorqin xotirasiga bag'ishlayman. Otam o'n sakkiz yoshida qishloq ahlining talabi bilan kolxozga rais qilib saylangan. Uzoq yillar ishlab, xalqning, davlatning e'tiborini qozongan. Do'stlari "Turkmanlarning xo'rozi" deb atashgan ekan. Xizmatlari Stalin davrida ham, mustaqillikdan keyin ham e'tirof etilib, bir qancha medallar bilan taqdirlangan otam o'z davrining ziyoli kishisi edi. Yaxshigina dutor chertar, adabiyot, san'atni sevardi. Oxiratingiz obod bo'lsin, otajon!".

*Kuy bag'rida faryod chekadi Furqat,
Bosh tebratib qo'shiq tinglaydi otam.*



ayoli shoira bo'lsa...

*Go'yo uni qurshab olgan bir kulfat,
Nigohida qotib qolgan bir motam.
Kuy bag'rida faryod chekadi Furqat...
Choy ichgancha otam qo'shiq tinglaydi
Kuy bag'rida faryod chekadi Furqat...*

Saodat opaning she'rlarida qishloqning dasht shamoliga ko'ksini bergan mehnatkash xalqimni ko'raman.

*Olam berar o'ziga pardo,
O'n sakkizga kirgan qizdayin.*

Yoki ushbu she'ri folklordan ko'chganga o'xshaydi:

*Tog'larning boshida tumandir,
Tumanlar tarqalar sen kelsang,
Dilimda bir o'jiz gumondir,
Gumonlar tarqalar sen kelsang.*

Xayolimdan bir ijtimoiy taklif o'tyapti: Saodat Donaboyevaning ayrim she'rlarini kichkina va o'rta yoshdagi maktab darslik kitoblariga kiritish kerakmikan?..

O'ziga ishongan-u kamtar, biroz tortinchoq, to'g'riko'ngil Saodatning yoshligida orzulari mo'l bo'lgan. Buni qarangki, orzular yo'l ochgan kabi sevib-sevilib shoir Muhammad Haydarga turmushga chiqqan edi...

*Otash bo'lding olovida orzularim yondirgan...
She'rlarni qayta-qayta ko'raman.*

Bu she'r ham, demak, yori vafotidan keyin yozilgan. Yori tirikligida unga bag'ishlangan boshqa birorta ham she'r u yoqda tursin, ibora yoki jumla topolmayman. Yozmaganmi? Ishonmayman! Har qaysi qiz yozadi-yu, sevib yetishgan Saodat yozmasmidi?

*Ishqning olovida yonganda yurak,
Hayo deb o'chirdi alangasini...*

O, hayo! Yaxshimisan, yomonmisan? Nima bo'lganida ham erk bermaysan! O'zbekim ayoli-ning chimmati ulotirilganiga 100 yil(1927) to'lyapti. Ta'kidlagan edim, biz g'arbcha xayol uchqurligini, muhabbatning nelarga qodirligini ham g'arbcha, ham sharqona tushuna olamiz. Ammo shaxsiy tuyg'ularimizni yurakning tub-tubida asraymiz. Demak, o'zingiz o'ylang, hayo, ibo qalbning qaysi qatida saqlanar ekan?

Ne bo'libdi axir, o'z yoriga, bolalarining otasiga atab bitilganlarini e'lon qilsa... "Balki" deb boshlanadigan(Yoshlikning bitiklari) muhabbat haqidagi she'ni topdim. To'g'risi, muhabbatni yo'qotishdan qo'rqish borasida, yo'qotilsa nima yuz berishi mumkinligi xavfi. Bu she'r dunyo ayollar qalbi, g'ururi to'g'risida go'yo avvaldan sezgan, keyin bashoratga aylangan alamli ilm. Dunyodagi har bir ayolga xos g'ururning achchiq tiziqlari harir qog'ozga o'rab berilgan. Ayol zoti borki, bu she'rdagi obrazda o'zini taniydi, sevgisi, mag'rurligi, yorining faqat o'ziniki bo'lishini istash ishtiyoqi, umid-ishonchi, kerak bo'lsa rashk-u gumonlari, dard-u alamlari tasvirlanganini o'zining darajasida

anglaydi. Muhabbat o'ldirishi mumkin oshiqni, she'r esa bashorat bera oladi!

Maktab yoshimda bir yapon yozuvchisining rashkchi ayol to'g'risidagi qissasini o'qigandim. Qissada erini nihoyatda sevgan ayol kundoshi borligini sezib qoladi, ularni ajratish uchun ko'p tadbir-amallar qilib maqsadiga yetolmay, g'azab-alam o'tida kassallanib o'ladi. Ammo arvohi kurashni to'xtatmaydi, arvohning tinimsiz yetkazayotgan yomonliklaridan oxiri xiyonatkor er ham baqo dunyosiga ketadi. Shundagina ayol ruhi osoyish olamiga qaytadi(Ayol qalbi bilan hazillashmang, ey, Siz!).

Saodat opamning ushbu she'rini "ayol haqidagi mukammal qissa" deb hisoblaganim bois, yapon asaridan bemalol ustun deya e'lon qilaman. G'alabaga jisman erishish hech narsa emas. Yoringning o'zligini sug'ura ola bilish – g'olibiyatdir.

*...Agar meni unutmog bo'lsang,
Meni bilgan o'zligingdan kech –
Yo'qsa meni unutilmaysan...*

Ishonchni ko'ryapsizmi, talabni-chi? Kamtar, kamsuqum ko'rinadigan, kichkina jussali shoira Saodat shunchalar tuyg'ularini she'rga solib, dunyoning bor ayoli hissiyotlarini haqqoniy tasvirlagan. Bu she'r, hozirgi zamonaviy til bilan aytganda, ongsizlik arxetipining mahsuli. Saodat opa ana shu tuyg'ularga nom beradi("Meni bilgan o'zliging"). O'zlikning yangi qirrasini tasniflandi. Bu shunchaki unutiladigan ishq tasviri emas, Saodat opam ijodining tojkor namunasidir.

"Hammasi tugadi, mana nihoyat..." she'rida ham shoira muhabbatsiz qalb o'zliksiz quruq jism deb tushunadi:

*Yoki sen qalbidan yiroqlab ketding,
Yo qalbm o'zidan tona boshladi.*

Muhabbat – ko'p qadim sharqiy an'ana. Sharqona so'fiy shoirlar ko'pirtirib, osmoniy tashbehlariga o'rab-chirmab g'oyat yuksak g'azallar bitgan. Saodat Donaboyeva uni misralarida sodda bayon etarkan, bu yerda mohiyatga e'tibor berishimiz kerak. Masalan, hind gurulari ham muhabbat – oddiylikda deb biladi. Hozir madaniyat, san'at, raqamli media, hatto ilm ommalashmoqda. Ammo go'zal axloq, samimiyat, muhabbat-chi? Dardlarimizga balki she'riyat malham qo'yar.

"(Xotiralar)" nomli (Nega sarlavhalarni qavsda bergansiz? Men buni o'zidan qoniqmaslik hissi alo-mati, deb bildim) she'rida Saodat:

*Men seni eslayman tonggi shabnamlar
Ko'zyoshlarim kabi tizilganida...*

*Shu qadar buyuksan dunyodan seni,
Umrbod so'roqlab, izlab o'tarman.
Ketsam jannatga ham sening ishqingni,
Mangu armon qilib olib ketarman –*

deb yozadi. Qattiq sevsang, Xudo olib qo'yadi, deyishadi. Saodat she'rlaridagi yana bir yarq etib ko'ringan mavzu – armon. Armon, muhabbat armoni, orzularining armonga aylanishi...

*Orzularim osmon edi ucholmadim,
Ash'orlarim armonlidir netay endi*



*Yuragimning yuklaridan qalbm sindi.
Bu dunyoning bag'ri doim sinoatdir,
Men kuylagan qo'shiqlarning avji tindi.*

Saodat Donaboyevadan sevimli o'quvchilari ko'p she'rlar kutib qoladi, "Avji tindi" demang, Saodat opa... Shundoq ham Sizda yurakni g'ijimlaydigan misralar ko'p: "Sarg'aygan yaproqlar – sarg'aygan ko'nglim", Kuzga boqyapman umrim kuzidan". Bular ham armondan.

*Orzularim ko'p edi-yu, armonlarga aylandi,
Qo'llarim ham bo'sh edi-yu, nelargadir boylandi.
Yo'llarimni to'sdilar-ku, ko'rinmas bir to'siqlar,
Men tog'larga intilgandim, olib ketdi bo'shliqlar...*

*She'riyatning ummonida bemalol suzolmadim,
Men shunchaki yashadim-u, shunchaki yozolmadim.*

Barchaga tanish: yetishmagan orzular bilan "bo'shliqlarda shunchaki yashash"... Muhimi, shunchaki yozolmaganingiz. Borini bitgansiz, faqat bori-ni.

*To'g'ri so'z aytishga ba'zan hayiqib,
Turmush tashvishlarin yelkaga qo'yib,
Yashayveribdi u o'rtanib, kuyib.
Asli yashadimi yo kun kechirdi?*

*Baxt deb atagani sarob chiqsa ham,
To'g'irlab yashadi posangisini.
Erkin fikrlar-u erkin tuyg'ular,
Orzudan armonga aylanib ketdi.
Ayol bo'lib kelib, ayol burchiga,
Xiyonat qilmasdan u yashab o'tdi.*

Ayol, ayol, ayol... Agar u shoirdir...

Gulshan RAHIM,
filologiya fanlari nomzodi

Hikoya

YOMG'IR TUNDA YOG'ADI

Ayolning yoshi 40 da. Ana, trotuardan bozorcha tomon ketib boryapti. Yo‘q, 28 da. Nega yigirma sakkizligini so‘ramang. Buniyam huv olis yillar ortida qolgan ustozining bir gapidan ko‘chirgan – universitetda uni o‘qitgan, payti kelib ishxonada rahbariga aylangan o‘sha ayol e’timodidan. Ustozi suyak yemirilishi dardi bois turmush qurmagan edi. Baribir tug‘olmaydi-ku. Lekin hurliqo. Bir qultum suv bilan yutib yuborgudek. O‘zi och-sariqdan kelgan, qisq ko‘zlari xiyol cho‘zinchoq chehrasiga nihoyatda avaylab chizib qo‘yilganga o‘xshaydi – yumuq va nozik lablari qimtinib turadi, burni qirrador emas, bo‘rtib ham turmaydi, shu bilan birga yuzining yarim enini olgan yapaloq ham emas (ana, o‘ziniki kabi), faqat sovqotganda uchi andak qizaradi – o‘shandagina burnining naqadar nafisligi seziladi.

Ustoz ayol tabiatan nimjon emasmi, tez sovgotadi, shamollaydi, o'shanda burni binafsharangga moyil qizarib qoladi – bor nafasati ochiladi; kipriklari ham uzun va quyuq, peshonasi esa silliqqina – terisi sira salqi tortmagan – na do'ng, na cho'zinchoq, na tor, yuzi shunday bir me'yoriy shakldaki, biror a'zo o'zining borligini bildirib go'zallikka soya solmagan, barchasi muhtasham uyg'unlikda go'zal. Qora va kalta sochlarining qoramtir ko'lankasida qiyofasi yanada yaltillab ko'rindi – nozik nur sochadi, bu ayolda mujassam har narsa nozik, ovozi ham ingichka va muloyim, gap-so'zi-da inja – na ortiqcha hiring-hiring, na keraksiz otashinlik, qahr-u g'azab, hislari ham bahor epkini kabi, mayin va obi-tobida. Hamisha past tovonli tuflida yuradi. Ehtimol kasalligi uchun. Axir rahbar ayollar uchun o'khasiz tuflari urf emas. Pastakkina bo'yi nozik qomati bilan biram mos tushadi – tabiat bunday ayolni faqat o'zi uchun yaratarmikan?..

Ishxonada samimiy kulib oʻzlari nom berishganidek, “hamma ersiz qizlar” ishlashardi. Qiz deganimizning bundayrogʻi ellikning ustida, undayrogʻi yigirma beshga yetib qolgan. U oʻshanda eng “undayrogʻi” edi. Nimadir bahona erdanmi, yoshdanmi gap ochildi – rahbar ayol, qirqdan oshgan chamasi, “men oʻzimni 28 da his qilaman, undan hech oshmaganman, ayolning eng gulgani 28 da boʻladi – har tomonlama yetiladi, oʻzingni toʻliq sezasan”, dedi. Unga qarab yigirma sakkizdan baland yosh berib boʻlmasdi, asli. Gul chogʻida nozik gurkirab, balki hilpirab turgan mushfiqa shu-shu xayolida 28 yoshli nozanin qiyofasida qotdi-qoldi. Hislari batamom yetilishi uchun yigirma sakkizini kutib intiq boʻldi. Oʻsha yoshida yashaydigan tuygʻularni qayta totmaydiganek nigoron-nigoron poyladi oʻzi ham. Ehtimol yigirma sakkizi keskin larzalar-u qattiq qalqalar-siz kechgandir, baribir gul chogʻlari oʻsha. Hozir ham gul u. Hozir ham yigirma sakkizda.

Mana, yigirma sakkiz yoshli qahramonimiz bozorcha tashqarisidagi yoymachilar yo‘lagiga yetib keldi. Yoymada har kim bor – olib sotarlardan meva ko‘tarib ikki hissa qimmatga pullaydigan mahalliy tujjorlar-u, o‘targa chetiga tandir qurgan novvoylar, Qozog‘iston dan paypoq, choy, atir o‘tkazgan “mayda-chuydachi” xotinlar, har yoymachining o‘rtasida kelishib olgandek bittadan saflangan, yoyma ustida qorasi yuzib yurgan “qora bozor”chi erkaklar, to‘qigan qo‘lqop, sharfini kun o‘tariga yoyib qo‘ygan o‘ris kampir, eskidan qolgan mevanusxa chinni istakoni birovga yarar degan o‘ydagi Is‘hoq amaki, nay chalib, uniqqan kitob sotadigan o‘n yil ichida sharpasi ilk bor ko‘rinish bergan qadrdon boboy, har juma kuni Jizzaxdan Toshkentga sut-qatiq yuklab keladigan va savdolasha turib otasi shahri azimdan qandoq qilib gadoytopmas qishloqqa uzativorganini hangoma qiladigan, qatig‘ining ustini uch qavat bo‘liq-bo‘liq yog‘ qoplagan qatiqchi opayu, damaslar turadigan “stayanka” oldida tovuqlarini qaqaqlatib tug‘dirib kelgan “domashniy” sini sotadigan tuxumchi xola, yonida fanerdan qo‘lbola rasta tiklagan uning singlisi... Ustida sotuvchisi da‘vo qilishicha, “chistiyy”, uyda yopilgan, qishga g‘amlangan “bankalar” – shinni-yu murabbodan tortib pomidor ikراسi-yu sharbati, tuzlangan bodringgacha bor... Ey, ishqilib, odamning sarasiyam, qora-qurasiyam shu yerda. Ot izi it iziga aralashganiyam shu, otang – bozor, onang – bozor deganlariyam... Istagan narxingga istagan sarxil

ne'mating topiladi. Qahramonimiz mana shu sarxillik shaydosi. O'zining ta'biricha, haqiqiy gurman. Lekin eng asl ta'm bozor ichidagi olibsotlar mahsulotida emas, mana shu o'zi qaydandir – shahar chekkasidanmi, tashqarisidanmi ko'tarib keladigan yoymachilardamish. Ularga mahsulotini qanchaga pullashi qiziqmasmish, sotilsa bo'ldimish, uyiga ko'tarib qaytmaydi-ku, quruq qo'l bilan ham so'ppayib ketolmaydi. Olib keladigan moli-da uncha ko'pmas. Bir kunlik. Millioner shahar odamlari nafs uchun urvoq ham emas. Shundan bilsa bo'ladi, ular sotuvchilikni kasb qilmagan. O'zidan ortganini yo judayam zoriqqanda sotadi.

Qahramonimiz ko'zi alang-jalang bo'lib kimnidir qidira boshladi. Topmadi shekilli, qarshisidagi qandolat do'koniga kirdi.



– Kechirasiz, bugun somsachilar kelmadimi –
Parkent ko‘ksomsa?

– Yo‘q, yomg‘ir yog‘yapti-ku, bugun chiqishmadi,
– dedi boshini telefondan ko‘tarmagan sotuvchi qiz.

Do'kondan chiqib, yaxshilab ser solsa, hatto tandir joyida yo'q. Demak, tandiri ko'chma ekan, qiziq, ko'chma tandirni nimaga ortib kelishadi? Bugun ko'ksomsa yemaydigan bo'ldi, ha, mayli, nasibasi qo'shilma-gan ekan. Xayol bilan damaschilarning "car-market" ochgan joyiga yaqinlashdi. Ikkita "car-market"da ya-shik-yashik mayiz turibdi, tuxumchi opaning qabatida esa yonidagi bino devoriga qunishibgina qapishib tur-gan boshqa mayizchi... Angoridan bozorda yangi, eh-timol, birinchi chiqishi. Boshida charm shapka, charm kurtkasi ustida esa yomg'ir tomchilari o'ynaydi. 30 yoshlar chamasi. Aniq, uyida ikkita bolasi bor, xotini-yam.

– Mayiz qancha? – so‘radi qahramonimiz. – Yeb ko‘rsam bo‘ladimi? – deb savol nazari bilan qaradi ortidan.

Shu payti bir opaxon na narx, na izn so‘rab bir siqim mayizni kapalab olgancha yeb o‘tib ketdi. Mayizchi gapini topolmay, kalovlanib qarab qoldi izidan. Keyin nigohini qahramonimizga olib, “yigirma besh ming” dedi. Uzumi katta-katta, tozagina ekan, ustiga-ustak juda shirin, yana biror cho‘p-chori yo‘q, dumsiz. Bozor ichiga kiring, sakson mingdan sotishyapti.

– Bir kilo torting.

Bunaqasini yozda ayni uzum o'chog'i – Zarkentda ko'rgandi. Uyam yigirma besh ming edi. Ammo begin kunlari. Dam olish kunlari ziyoratchi-yu sayohatchilar kelishiga ko'tarilardi – oltmish minggacha. Mayizni olib yo'lida davom etdi. Yo'l-yo'lakay boyagi erkakning cho'ntagi pulga to'lib, uyiga kirib borishini tasavvur qildi. Tabiiyki, u biror qishloqda yashaydi, borsin, ana o'sha Zarkentdadir. Uyi loysuvoq – hozir loysuvoq uy qolmaganiga aqli yetadi, ammo shunday xayol yoqimli, uyidan tunda chakka o'tadi, ayni yomg'ir yog'ib turibdi, tun yarmida er-xotin uyg'onib tomchi tomayotgan joylarga tog'ora yoki satil qo'yadi, bolalari ustiga qavat-qavat ko'rpa yopadi, bolalari ivib qolmasligi uchun ertalabgacha qo'rib chiqadi er-xotin. Ana mehr, ana oila, ana og'zibirlik – o'shanda hozirgi olgani mayizning puli ham asqatadi. Nimasigadir yaraydi-da ishqilib.

Oila deganda faqat shu manzara ko‘z oldiga keladi – loysuvoq uy, yomg‘ir, chakka va qo‘rib chiqadigan ota-ona. Boshqasi arzimasi, boshqasi mehr manzarasining yaqiniga ham yo‘lolmaydi.

Bir kuni onasi uylariga opa yetaklab keldi. “Opa” onasi bilan hamkasb, shifoxonada birga ishlashar ekan. Opaning endigina sal-pal salqi tortib boshlagan yuzlari sutga chayilgandek oq, lekin istarasi issiqligidan sariq nur sochadi. Ovozidagi halimlik yuziga oʻrnashib qolgan yoxud jism-u joniga choʻkkan halim feʼli ovozi torlarini sozlab, yuzining mayda chiziqlarigacha nafislik bilan oʻrnashadi. Adashmasa, onasiga tomchi dori quygani kelgandi. Ismi ham undan guppa taralayotgan mehrga mos – Muruvvat. Taxmonga yigʻilgan yetti qavat koʻrpa ustiga oʻzini tashlagandek darrov borib quchogʻiga urgisi keladi odamning. Quchoqʻi ham shundoq erkalovchi, momiq va parqu tuyiladi – aniq ishonadi, hozir borib bagʻriga otilganida onalarcha mehr bilan ogʻushiga olardi, lekin uyaladi, istihola qiladi, barmogʻini tishlab termilib turaveradi.

Onasi unga alohida hurmatda. “Opa-opa” deyishidan yana oʻnta opa toʻkiladi. Ikkisining gaplari, yurak yozdilaridan qizcha onasining ishxonada eng yaqini shu ayol ekanini anglab yetadi. Ayolning koʻzlari, nigohlari, ust-boshida ham toʻqchilik bor – shundan xotir-jammikan, anglovsiz, har holda avzoyida balqqan ahvoli ruhiyasi onasining ruhida suzib yuradigan xavotir hissi toʻlqinlaridan koʻp farqli.

Onasi hali yosh oilaga beka, o'zlarini tiklashi, oyoqqa turishi uchun ancha-muncha vaqt kerak, ustiga-ustak sog'lig'i ham o'ziga yarasha, oshqozon va doimiy bod kasali, yana mayda-chuyda darmonsizliklari bor. Shundanmi, onasining chiroyi ochilganini kamdan kam ko'radi.

Bu ayolda odam yonidan ketishni istamaydigan tarzda allabir halovat bor. Ehtimol, onasi o'ziga lozim xotirjamlikni shu ayoldan topgandir. Shungayam, yonidan jilgisi kelmas. Aniq sezadi – jilgisi kelmaydi, chunki soniyalar ichida o'zi ham avval hech ko'rmagani bu ayolga yopishdi-qoldi. Onasining hislari unga-da yuqadi.

Ayolga ko'rsatayotgan alohida ehtiromi go'yo onasini ham poklaydi, izzatini oshiradi, uni oliyjanob qilib borayotgandek endi onasi ham o'zini o'ragan tubsiz qorong'ilikdan chiqib balandlay boshlagan, yorisha boshlagandek tuyiladi. Biz yurakdan mehr qo'yganlar bizni ham siylasa, yurakdan hurmat qilganlarimiz yurakdan izzat qilsa – shunday bo'ladi chog'i. Buning otini nima deb atash qorong'u – mehrmi yo odamgar-chilikdagi go'zallik, ishqilib, ichimizni yumshatadi.

(Davomi 16-betda)



Axmedov Alibek Bahodirovichning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha “Yog'li gepatoz negizida kechuvchi tish qattiq to'qimasi nokarioz kasalliklarini tashxislash, davolash va profilaktikasi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Sadikova Nigora Majidovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha “Salmonellyoz infeksiyasining oqibatlarini shakllanishida essensial mikroelementlar va immunologik yallig'lanish markerlarining patogenetik ahamiyati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12. Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 30-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30;
vab-sayt: www.immuno.uz; e-mail: immunology@immuno.uz, immunology@exat.uz

Komilov Jahongir Davlatovichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha “Jigar sirrozi etiologiyali spontan bakterial assit peritonit davo usulini maqbullashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Eronov Samarbek Qurbonnazarovichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “O'zbekiston yoshlari dunyoqarashini yuksaltirishda ishonch va e'tiqodning o'rni” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12. F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-mart kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Akramova Dilshoda Erkinovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Ayollarda chanoq a'zolari prolapsi diagnostikasi va bashoratlashning genetik jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Ziyavutdinov Asadulla Sunnatullayevichning 04.00.11 – Quduqlarni burg'ilash va o'zlashtirish texnologiyasi bo'yicha “Qiya yo'naltirilgan va gorizontal quduqlarni burg'ilash texnologiyasini tadqiq etish(O'zbekiston Respublikasi konlari misolidagi)” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi “O'ZLITINEFTGAZ” AJ huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.36/2025.27.12. T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: 280-67-00, 256-74-18, 256-66-48; e-mail: liting@liting.uz

Usmanov Asqar Abdullayevichning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12. Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Sattorova Mahliyo Burxanovnaning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Bo'lajak muhandislarni mustaqil ishlash jarayonida kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12. Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Suleymanov Iskandar Nematovichning 14.00.08 – Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha “Kataraktani jarrohlik davolashdan keyin yoshga bog'liq makulyar degeneratsiya jadallashishining oldini olish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66; e-mail: sammu@sammu.uz

Saliyeva Muyassar Kazimdjanoynaning 02.00.03 – Organik kimyo ixtisosligi bo'yicha “Ayrim geterosiklik aldegid va ketonlarni alkinillash reaksiyalari yordamida atsetilen spirtlari sintezi” mavzusidagi(kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12. K.04.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz

Amanova Nodira Tulkinovnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Homiladorlikning turli muddatlarida COVID-19 kasalligini o'tkazgan onalardan tug'ilgan chaqaloqlarda moslashuv davri xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-78-25, 214-83-11, 150-78-28;
vab-sayt: www.tma.uz; e-mail: info@tma.uz, tta@exat.uz

Raxmatov Elyor Omankulovichning 02.00.03 – Organik kimyo (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha “Benzimidazollar va xinazonlar qatorida qishloq xo'jaligi uchun samarali pestitsidlar olish texnologiyasi” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik S.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12. K/T.20.01. M raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 26-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
Tel/faks: (71) 262-59-13; e-mail: ixrv@mail.ru

Xojabayev Alisher Maxmudovichning 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari hamda 02.00.15 – Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi ixtisosliklari bo'yicha “Qoraqalpog'istondagi Xo'jako'l koni ganchi va noorganik xomashyolari asosida gipsli devorbop mahsulot tarkiblarini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.0312026.09.01. T.02. M raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 25-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100094, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 508-50-14, 508-03-12; e-mail: devon@taqu.uz

Usmonov Baxtiyorjon Arobidin o'g'lining 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha “Koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda generallashtirish kompleks davolashni optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-mart kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66; e-mail: sammu@sammu.uz

Suvonqulov Sarkorbek Sanjar o'g'lining 11.00.03 – Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Hidrokimyo ixtisosligi bo'yicha “Iqlim o'zgarishi sharoitida Chirchiq-Ohangaron havzasi muzliklari, ko'llari va daryolari gidrologik rejimining shakllanish xususiyatlari” mavzusidagi(geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Hidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.18/2025.27.12. Gr.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bodomzor yo'li 1-tor ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (71) 235-83-25, 235-83-29; e-mail: info@nigmi.uz

Ibodullayev Doston Rashidovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qaddi-qomatini to'g'rilashda ippoterapiya sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlaridan foydalanish uslubi” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12. Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100202, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O'zbekiston ko'chasi, Olimpiya shaharchasi.
Tel/faks: (71) 242-30-87; vab-sayt: https://uzjtsiti.uz; e-mail: jtsiti@sport.uz

O'zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Markaziy kengashining 2025-yil 19-avgustdagi 16-sonli Qurultoy qaroriga asosan, “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Markaziy kengashi hamda uning mintaqaviy bo'limlari faoliyati

TUGATILDI.

Shuningdek, “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Markaziy kengashining Toshkent shahar mintaqaviy tuman bo'limlarining muhr va guvohnomalari yo'qolganligi sababli haqiqiy emas deb hisoblanish barobarida

BEKOR QILINADI.



Hikoya

YOMG'IR TUNDA YOG'ADI

(Davomi. Boshi 14-betda)

Tomchi dori soat strelkasi o'qining yurishiga o'xshab taqillab tomarkan, onasi va ayol o'rtasida qizg'in gurgung boradi. Yo'q, onasining boshqa ayollar bilan gaplashadigan gaplari kabi "shang'i" gurgung emas, muloyim, ohista gaplashib o'tirishadi – vaqtni qo'rish yo uni oqizish, sevishtirish, yashash, xullas, hamma narsa.

Ayol sassizgina gap ochadi. Hamma narsadan, o'tgan-ketgandan, keyin onasi navbat oladi – yo ayol aytgan biror gapga gap qo'shadi, izoh beradi, yo o'z dardini aytadi. Gapning xonasi, shunday bo'lgan, bo'lishi kerak, ammo bular qizning esida qolmagan. Esida qolgani mana bu:

"Yomg'ir yog'adi. Tomdan chakka o'tadi. Loysuvoq-da. Erim bilan turib besh bolaning ustini yopamiz. Ko'rpa ustiga ko'rpa tashlaymiz. Kunjaklarga chelak qo'yamiz. Yomg'ir tinmaguncha uxlamaymiz. Qo'rib chiqamiz".

Ayolning gap ogangidan eriga atalgan mehr-muhabbat chak-chak to'kiladi. Ayolning gaplari shunaqa ajab-tovur, sehrliki, endi qizaloq uchun oila yoki sevgining mukammal tasviri bo'lib tunda bolalarini yomg'irdan qo'riyotgan bir-biriga suyangani sevikli er-xotin siymosi qoladi. Sekin-sekin o'z xayollarini shu tomonga oqizadi – maktabdagi o'ziga moyil sinfdoshiga yillar o'tib tegishni xayol qiladi – o'shanda ular ham shunday qilishadi, yomg'ir yog'adi, tomdan bolalar ustiga chakka o'tadi, keyin suyuqlik er-xotin bolalar ustini yopib, har yerga tog'ora-paqir qo'yib uy va bolalarni yomg'irdan qo'rib chiqadi. Ha, xayollar doim go'zal, ammo mushtdek bolalarning orzusi qayda-yu, gap qayda.

Vaqt ilang-bilang oqadi. Qo'lga ilgan-ilmaganni to'liqligiga ildirib oqadi. Aytishlaricha, vaqt spiralsimon oqadi – lekin har aylanib kelganida gorizontalligiga kengayarkan – aylana endi yanayam kengroq bo'lar emish. Vaqt aylana bo'lib oqadi. Qizaloq o'smir bo'ladi, onasi o'sha opaning yoshiga boradi, opa esa qiz chiqarib, o'gil uylantiradigan davrga yetadi. Yolg'iz qizi – to'ng'ich farzandini uzatadi ham. Onasi ishini o'zgartirgan, oyli urvoq bo'lmagach, boshqa sohaga o'tib ketgan, huv o'sha paytlardagi, opa-singillik izlari ham endi yitgan. To'y-ma'arakalarga borib kelishadi, lekin



ko'pmas. Ko'zdan yiroq ko'ngildan yiroqmi, yo oralarda boshqa gap oraladimi, kim bilsin, uzoqlashishdi. Onasi bilan otasi endi o'zini tutib olgan, elga o'zi istagandek qo'shilgan, endi o'sha ayoldan bo'lak ham taffini oladiganlari bisyor, vaqt va umr sirlarini yolg'iz bir dildosh bilan hangoma qilishga qarab qolmagan.

Yo'q, adashdi, qizaloq o'smirlikining ilk pallalari ular tez-tez bordi-keldi qilib turishardi. Endi opasingillar qolib, erlar – oilaviy o'tirib-turishadi. Tug'ilgan kun yo boshqa yig'inlar – dasturxon yo tog'orasi qo'lida kirib kelishaverardi. Bu sovg'a-salom-u tog'oralar qarzi edi onasiga. O'sha qo'li yupunlik paytlari pul bormi, yo yal-yal mato, ishqilib, "sovg'a" oti bilan opasi rosa siylagan. Shu darajada qadrdonlashib qoluvdi ular.

Bizning qahramonimiz o'smirlik o'rtasiga yetadi. Shu paytlari izlar avvalgidek serqatnov emas, o'cha boshlagandi. Ammo qahramonimizning yuragida qolgan ishq tasavvuri va mehr sira yitmadi-yu, o'zi alag'da edi. Endi kollej borardi. Anavi sinfdosh yigit ham sport maktabiga o'tib ketgan, qahramonimiz nima qilsin ekan, tasavvurlarini yigitga bog'lasinmi, yo olislarga chorlayotgan boshqa hayotga?! Kollejga kirish oldi shu alag'da xayolotda edi. Kirdi-yu, har qanday xayolot tuman kabi tarqab ketdi – miya muttasil bandligidan, katta o'qish tadorigidan xayol-u tasavvurga endi quvvati yetmasdi. Biroq sevgiga bo'lgan mangu talpinish, ichkin orziqish yurak-yuragida qolaverdi. Xayolidagi yigit yuzi ham mutlaq notanish, ammo qadrdon siymoga evrilgandi, endi sinfdoshi ham bolalik kabi ortda qoldi...

Yozda talabalar qishloqlariga qaytadi. Qahramonimiz ham uyida. Darslaridan bosh ko'tarmaydi. Tush

payti otasi gap ko'tarib keladi: Muruvvat opaning talaba o'g'li kecha tunda stadionda futbol o'ynay turib, yiqilib tushibdi, boshi toshga tekkan ekan, hushidan ketibdi, hozir komada ekan".

Qahramonimizning yuragi "shuv" etadi. Onasi Xudo saqlasin-ey, deydi ichiga tuflab. "Tosh? Qishlog'i qumloq joy bo'lsa, qayerda bor ekan odamni yiqitadigan tosh?" O'g'il to'rt-besh kun komada yotadi – oxir-oqibat ota-onadan izn so'rab apparatdan uzishadi. Bo'ldi, ketdi... Atigi 20 yosh. Universitetda eng ilg'or talaba sifatida rasmi turadigan yigit – ketsa, bir mayda toshdan ham ketaverar ekan. Tobutni kasalxonadan olib kelishlariga hovlida tumonat odam yig'iladi – onasi ham bir to'p xotin-xalaj ichida. Ko'k kiyib, aza ochadi.

Shu bilan qahramonimizning baxtli oila hayoti, farzandlar, sevgi haqidagi joni bor tasavvurlari suvga oqadi – sarg'ayadi, so'ladi, oxir o'zini yo'qotib, shamollarga sovriladi. Shu savdodan keyin oilalar o'rtasidagi bordi-keldi ham tamom o'chadi. Oradan ikki-uch yilcha o'tib qahramonimiz "xola"sini yo'lda uchratadi. Kuza-tadi. Xola o'zi bilan o'zi, xayolchan, endi undan sariq nur emas, taram-taram sariq so'niqlik taraladi. Ko'zini yerdan olmaydi. Salomiga ham ko'z qiri bilan alik oladi. Tanimaydi, yo tanisa ham unga farqi yo'qdek. Chog'i, qahramonimizning baxtli oila hayotiga bo'lgan umid O' Genrining "So'nggi yaproq"idek o'shanda band-bandidan chirt uzilgandir. O'sha salomigacha yuragida asragan, ammo qachonlardir hayotida ilk uchratgani to'liq, to'kis, mehribon, osoyishta ayolning yongan, sochilgan, to'zg'in qiyofasi so'nggi ilinjni ham to'zg'itib yuborgan. Xolaning ovozi o'sha-o'sha tinch, sokin edi, biroq juda horg'in, endi uning kimgadir taft yo mehr berishga holi qolmagani yuzidan ayon.

Ayol yonidan tez ketishni istadi, qadamlarini qistadi-yu, shuvillab o'tib ketdi.

Shu-shu ayol ham oynani qoplagan loyqa yomg'ir singari xotirasida xira tortdi. Endi-chi, hayotmikan o'sha xotin yo yo'q, Xudo biladi!

Ammo qahramonimiz o'zi bilmagan holda uni hayotida olib yuradi. O'sha baxtli oila haqidagi tasavvuri o'chgan kundan oila, sevishtirish haqidagi tasavvurlar ham zavolga aylangan. Shu-shu turmush qurmadi, negaligini o'zi ham bilmaydi – biladi-yu, parvo qilmaydi – nima haqida tasavvur yo'qolarkan, axir uning o'zi ham ortiq mavjud bo'lolmaydi, yo'qoladi, ro'y bermaydi... ey xullas-da...

Qahramonlarimiz yo'lida uchragan yorqin taassurot qoldirgan odamlarning gapidan o'ziga tasavvur qidirib yuradi. Keyin hayotini o'sha olovli taassurotlariga moslaydi: mana u bozorga ketmoqda. Yoshi qirqqa yetgan bo'lsa ham, o'zi 28 da. Devor panasida o'tirgan sotiqlikdan ul-bul xarid qiladi. Tezroq uyiga borsin. Uzoqdan kelgan. Qishloqdan. Bugun yomg'ir yog'adi. Uning uyida bolalari bor. Tomidan chakka o'tadi. Xotini ikkovi bolalarini tong otguncha qo'rib chiqadi. Zaril bo'lmasayam sotib olsin shu zormandani, oila egasiga to'rt-besh so'm pul bo'lsin, hech bo'lmasa yo'l haqi, uning oilasi bor, bugun yomg'ir yo'g'adi.

Tillaniso NUR

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6080. Tiraji-5500.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Marifat"dan
materiallarni ko'chirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqiriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazetaning saytiga o'tish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbachi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbachi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

